



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI
JAXONGIROV JAVOXIRNING

*“5110900-pedagogika va psixologiya” ta’lim yo`nalishi bo`yicha
bakalavr darajasini olish uchun*

**“PSIXOLOGIYADA QOBILIYAT MUAMMOSI VA UNI
PSOXODIAGNOSTIKASI (O`SMIRLIK DAVRI MISOLIDA) ”**
mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Dots. M.Xalimova

Andijon- 2017 yil

Reja:

KIRISH

I BOB. Qobiliyatning yoshga hos hususiyatlarini rivojlanishining metodolik asoslari.

1.1. Jaxon psixologiyasida qobilyat muammosining tadqiq etlishi.

1.2. Qobiliyat va uning yoshga xos xususityalari

II BOB. . O'smirlarda qobilyatlarni rivojlantirish usullari

2.1 O'smirlik davrida qobiliyat ko'rinishlari va ularni rivojlantirish usullari.

2.3.Psixologiyada qobiliyat muammosi va uni psixodiagnostikasi.

UMUMIY XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4-7
--------------------	------------

I BOB. Qobiliyatning yoshga hos hususiyatlarini rivojlanishining metodolik asoslari.

1.1. Jaxon psixologiyasida qobilyat muammosining tadqiq etlishi.....	8-11
1.2. Qobiliyat va uning yoshga xos xususityalari.....	12-21

II BOB. . O'smirlarda qobilyatlarni rivojlantirish usullari

2.1 O'smirlik davrida qobiliyat ko'rinishlari va ularni rivojlantirish usullari.....	22-28
2.3.Psixologiyada qobiliyat muammosi va uni psixodiagnostikasi...	28-49

UMUMIY XULOSA.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kundanoq ta'lim muassasalarining oldiga muhim yangi va ustuvor vazifalarni qo'ydi. Har tomonlama rivojlanishda oldinda borayotgan jamiyatimiz bugungi kunda ta'lim sohasida milliy modelimizga javob bera oladigan malakali kadrlar tayyorlashni yanada yaxshilash muammosini ko'ndalang qo'ymoqda. Bu esa bugungi kunda ta'lim sohasida davr talabiga javob beradigan mutaxassislarni faqat nazariy bilimlarni chuqur o'rgangan holda emas, balki har tomonlama rivojlangan barkamol inson, muomala madaniyatiga ega bo'lgan, o'z ishining mohir ustasi etib tayyorlashga katta e'tibor berishni talab etadi. 1-Prezidentimiz I.A.Karimov ta'biri bilan aytganda «...biz o'z iste'dodli, fidoyi bolalarimizga, farzandlarmizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak».¹ Ayniqsa, hozirgi davrning bu talab bo'lajak o'qituvchilarni yuksak pedagogik mahorat va qobiliyat bilan qurollangan, o'z fanini sevadigan madaniyatli shaxs sifatida tayyorlash kerakligini yana bir bor ta'kidlab bermoqda. Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarida o'quvchi shaxsiga uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq kelajagiga alohida e'tibor qaratilayotgan ekan, bu jarayonda har bir o'quvchidagi o'quv faolligini namoyon etuvchi ichki munosabatlarning qay darajada tarkib topayotganligini o'rganish, tahlil qilish va shular asosida tegishli ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu jarayonda eng avvalo ta'lim-tarbiya tizimi, uning mazmun-mohiyati, ta'lim tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi psixologik tamoyillari muhim ahamiyat kasb etadi.

Qobiliyatlar – odamning shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, malaka, ko'nikma orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin bu xususiyatlarning o'zi bu bilim, malaka va ko'nikmalarga taalluqli bulmaydi. Masalan, Ikkita bola institutga kirayapdi deylik. Ulardan biri test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tdi, ikkinchisi o'tolmadi. Bunda ulardan birining qobiliyati ortiq degan xulosaga kelib bo'lmaydi. Bilim orttirishdagi muvaffaqiyatning faqat bir

o'zi bilan qobiliyatni aniqlab bo'lmaydi. Qobiliyatlar bilim, malaka, va ko'nikmalarini egallashda namayon bo'lsa ham ular bilim, ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydilar. Odamning qobiliyatlari bilim va ko'nikmalarni egallash uchun faqat imkoniyat hisoblanadi. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi, bularning hammasi, juda ko'p sharoitlarga bog'liqdir. Bolada namayon bo'lgan musiqa qobiliyati uning musiqachi bo'lishiga kofil bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi uning unga maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyat taraqqiy etmay, so'lib ketishi ham mumkin. O'quvchida hali zaruriy ko'nikma va malakalar sistemasi hamda mustahkam bilimlar va tarkib topgan ish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirmay shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy xatosi buladi. Bolalik paytida ma'lum qobiliyatlarning atrofdagilar tomonidan tan olinmaganligi, keyinchalik shu qobiliyat tufayli shon shuhrat topgan odamlar ko'p.

Qobiliyatlar faoliyatining muhim komponentlari bo'lishi bilim, malaka, ko'nikmalar bilan aynan bir narsa bo'lmasa-da, ular bir - birlari bilan bog'liqdir. Qobiliyatlar bilim, malaka, ko'nikmalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash dinamikasida namayon bo'ladi, ya'ni boshqacha aytganda mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez va chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirishingizda namayon bo'ladi. Xuddi shu yerda yuzaga chiqadigan fikrlar bizga qobiliyatlar haqida gapirish huquqini beradi. Demak, qobiliyatlar shaxsning (qobiliyatini) faoliyatini muvaf-faqiyatli amalga oshirish sharti hisoblangan va bilim, ko'nikma hamda malakalarni egallash dinamikasida yuzaga chiqadigan farqlarda namayon bo'ladigan individual - psixologik xususiyatdir. Agar shaxsning ma'lum sifatleri yig'indisi odamning pedagogik jihatdan asoslab berilgan vaqt oralig'ida egallagan faoliyati talablariga javob bersa, bu narsa bizga unda mazkur faoliyatga nisbatan qobiliyati bor deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Agar boshqa bir odat bo'lgan shunday holatlarda faoliyat talablariga javob bera olmasa, unday paytda bu unga tegishli psixologik sifatlar boshqacha aytganda qobiliyatlar yo'q deb faraz qilishga

asos bo'ladi. Bularni egallash jarayoni chuzilib ketadi, pedagogdan kup kuch va vaqt sarflashni talab qiladi.

Tadqiqot maqsadi: "Psixologiyada qobiliyat muammosi va uni psixodiagnostikasi (o'smirlik davri misolida)" mavzusi asosia qobiliyatining nazariy asoslarini aniqlash hamda pedagogik qobiliyatni yanada rivojlantirishda mavjud shart-sharoit va imkoniyatlarni yoritishdan iborat.

Tadqiqot ob'ekti: Psixologiyada qobiliyat muammosi va uni psixodiagnostikasi jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Psixologiyada qobiliyat muammosi va uni psixodiagnostikasining ijtimoiy psixologik shart-sharoitlar va imkoniyatlar.

Tadqiqot vazifalari:

1. Mavzuga oid pedagogik, psixologik, falsafiy yo`nalishidagi manbalarni o`rganish, tahlil qilish va umumlashtirish.

2. Psixologiyada qobiliyat muammosi va uni psixodiagnostikasi muammosini pedagogik-psixologik shart-sharoitni o`rganish.

3 Psixologiyada qobiliyat muammosi va uni psixodiagnostikasi o'smirlik davridagi shakllanganlik darajasini tahlil etish va ulardan tatbiqiy tizim ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari:

1. Anketa, suhbat, savol-javob, o`rganish.

2.Tahlil, qiyosiy tahlil.

3. Psixologik diagnostika.

4. Sotsiologik tadqiqot, ijtimoiy so`rov.

5. Psixologik eksperiment. Ayzenkning verbal testi.

6. Empatiya qobiliyatini o`rganish metodikasi.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O`zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi, «Ta'lim to`g`risida»gi Qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O`zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimovning ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan asarlari, nutq va ma'ruzalarida ilgari surilgan ma'naviy-ma'rifiy muammolarga doir nazariy yondashuvlari va qarashlari, Sharq va g`arb

pedagogikasidagi o`qituvchilik kasbi va uni rivojlantirishga oid ta'limotlar, nazariy yondashuvlar, O`zbekistan Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta'lim sohasidagi Qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining me'yoriy hujjatlari, zamonaviy metodologiya, pedagogika, psixologiya va metodika sohasidagi ilg`or g`oyalar, tamoyillar.

Tadqiqot ishining tarkibiy tuzilishi va hajmi: ish kirish, 2 bob, 4 bo`lim, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat

1 BOB. Qobiliyatning yoshga hos hususiyatlarini rivojlanishining metodolik asoslari.

1.1. Jaxon psixologiyasida qobiliyat muammosining tadqiq etlishi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» (avgust 1997 yil) ta'limning uzluksiz o'zbek modeliga asos solib, uning asosiy vazifasi komil shaxsni shakllantirishdir. Dasturning muhim vazifalaridan biri ta'lim oluvchilarning aqliy individual xususiyatlari va qobiliyatlarini tarkib toptirish bo'lib hisoblanadi. Qobiliyatlar muammosi psixologiya fanida qiziqarli va ma'lum darajada tadqiq qilingan muammolardan biridir. Bu muammo yuzasidan qadimdan to shu kunga qadar olimlar izlanishlar olib borganlar. Insonning imkoniyatlarini o'rganishga Sharq mutafakkirlari (Farobiy, Beruniy, Ibn Sino), rus psixologlari (B.M.Teplov, B.G.Anan'ev, S.L.Rubinshteyn, A.G.Kovalev), Farb olimlari (A.Bine, T.Simon, V.Shtern, U.Ollport) kabilar katta hissa qo'shganlar. Ushbu muammo ustida O'zbekiston psixolog olimlari (E.Foziev, M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, V.A.Tokareva va b.) ham izlanish olib borganlar.

Ijtimoiy xayot ehtiyojlari kadim zamonlardan buyon kishining tevarak atrofdagi odamlarning psixik jihatdan tuzilish xususiyatlarini fvrklay bilishga va ularni uz xatti-xarakatlarida xisobga olishga majbur etib kelgan. Dastlab bu xususiyatlarga jonning ta'siri deb izox berilgan. «Jon» tushunchasining paydo bulishi ibtidoiy odamlarning animistik karashlari bilan boglikdir. Ibtidoiy odamlarning tasavvurida rux tanadan batamom ajratilmagan buladi. Ibtidoiy odam ulimni xayot jarayonining oxirgi boskichi deb tushunmagan. Shu bois ulim uykuning bir turi sifatida idrok etilib, bunda rux allakanday sabablarga kura tanaga kaytib kelmaydi deb izoxlangan. Keyinchalik jamiyat tarakkiy etib borgan sari, sinfiy jamiyatning paydo bulishi va kishining mavxumlashtirish kobiliyati rivojlana borishi munosabati bilan jonning moddiylikdan xoli tabiati xakidagi goyalar paydo buldi. Oldingi animistik afsonaviy tasavvurlar urnini ruxning borlikning naturfilosofik manzarasi nuktai nazaridan tushuntirishga urinishlar egallay boshladi. Naturfaylasuflar-Fales(er. old.VII-VI asrlar), Anaksimenes (er. old. V asr), Geraklit (er.old. VI-V asr) ruxni olamning ibtidosini tashkil etuvchi narsa

(suv, xavo, olov)ning odamlar va xayvonlarga jon ato etuvchi shakli tarzida talkin kilingan. Kadimgi yunon faylasuflarining bu goyani izchillik bilan utkazishlari, materializmning uziga xos shakli- materiyaning jonliligi (gilozoizm) tugrisidagi xulosaga olib keladi. Bu materialistik goyalarning Demokrit (er. old. V-IV asrlar) Enikur (er. old. IV-III asrlar) va Lukretsiy (er. old. I asr) kabi atomistlar tomonidan rivojlantira borishi okibatli ularok rux tanaga jon bagishlavchi moddiy jism, shuningdek moddiy asos xisoblanmish akl, ya'ni boshkacha kilib aytganda, xayotning butun jarayonini boshkarish vazifasini, bajaruvchi idrok bilan idora etiladigan a'zo sifatida talkin etila boshladi. Faylasuflar orasida Aflotun (er. old. 428g`427-347y.y.) aloxida ajralib turadi. U jonning kismalari tugrisidagi tushunchani yaratdi. Shunday kismalardan a) akl-idrokni, b) jasoratni, v) orzu-istakni aloxida ajratib kursatadi va ularni tananing turli kismalari (bosh, kukrak, korin bushligi)ga joylashgan buladi degan fikrni ilgani suradi. Uning fikricha, jon kismalari odamlarda bir xil taksimlangan bulib, ulardan birining boshkalarga karaganda ustun bulishi individning u yoki bu sotsial guruxga mansubligini belgilaydi. Jumladan, oddiy mexnatkash jon kuyi kismining, ya'ni nafsining ustunligi bilan ajralib turadi. Aflotun psixologiyada dualizmning, ya'ni moddiy va ruxiy olamni, tana bilan psixikani ikkita mustakil va antagonistik ibtidolar tarzida tushuntiradigan ta'limotning asoschisidir. Uning shogirdi Arastu (er. old. 384-322 y.y.)ning ta'limoti ancha muvaffakiyatli ilgarilab ketdiki, u psixologik fikrlarni tabiiy-ilmiy asosga kayta kurib, uni biologiya va tibbiyot bilan bogladi. Arastuning «Jon tugrisida»gi asari psixologiyani bu davrga kelib uziga xos bilimlar soxasi sifatida ajralib chikkanligidan dalolat beradi. Arastu kishilik tafakkuri tarixida birinchi bulib rux va jonni tananing ajralmas ekanligi goyasini ilgari surdi. Arastu organizmning tabiatdan olgan imkoniyatlarni fakat uzining xususiy faolligi orkali ruyobga chikarishiga asoslangan xolda xarakterning real faoliyatida shakllanishi tugrisidagi nazariyani ilgari surdi. Geraklit, Demokrit, Aflotun, Arastularning ta'limotlari keyingi asrlarda psixologik goyalarning rivojlanishida tayanch nukta, asos buldi. Asta-sekin rux xakidagi tushuncha xayotning barcha kurinishlariga nisbatan kulanilavermasdan, fakat xozir biz

psixika deb atayotgan darajaga nisbatan kullanila boshladi. Eramizdan oldingi III-asrda aleksandriyalik vrvchlar Gerofil va Erazistrat nervlarni kashf etishda va ularning pay va chandirlardan farkini aniklab berishdi. Bu vrvchlar psixik funktsiyalar (sezgilar va xarakatlar) miyaning kuzgatilishiga boglik ekanligini muntazam ravishda urganib borishdi. Umuman gavda emas, balkim tananing ayrim a'zolarigina (nervlar, miya) psixika bilan chambarchas boglik ekanligi aniklandi. Xayotning xar kanday kurinishiga asos buladigan rux bilan sezgilar va xarakat (nervlardan ajralmaydigan) larning asosi sifatidagi rux ikkita xar xil guruxlar bulib chikdi.

Eramizdan oldingi II- asrda rumiyalik vrvch Galen fiziologiya va tibbiyotning yutuklarini umumlashtirib, psixikaning fiziologik negizi xakidagi tasavvurlarni boyitdi va ong xakidagi tushunchaga yakinlashib keldi. XVIII-asrda assotsiativ psixologiyada materialistik yunalishning eng yirik namayondasi David Gartli edi. U No`yutonning fizikasiga, shuningdek fiziologiya va tibbiyot(Gartli amaliyotchi vrach edi) soxasidagi yutuklarga tayanib, refleks xakidagi tushuncha bilan assotsiatsiya xakidagi tushunchani birlashtirdi. Uning ta'limotida nerv sistemasiga sezgi a'zolaridan miya orkali mushaklarga ytkaziladigan tashki ta'sir butun psixik xayotning ilk manbai sifatida kabul kilingan edi. Bu ta'sir miyada sezgilar tarzida va ularning izida- goyalar tarikasida saklanib koladi. Bir-biriga yakin sezgilarning tez-tez takrorlanaverishhi shunga olib keladiki, nerv sistemasida boshka sezgilar koldirgan izlarning butun zanjirini tiklash uchun bittagina sezgi (u ilgari xammasi bilan boglik bulgan)ning uzi kifoya kiladi. Kachonki ushbu zanjirga yangi kuzgatuvchi- suzning kushilishi bilan iroda va tafakkur paydo buladi. Organizmga xarakatlarning ikki xil turi - ixtiyoriy (ongli) va ixtiyorsiz (ongsiz, reflektor) turlari xosdir degan fikr XIX-asrning birinchi yarmida keng tarkalgan edi. Bu fikrning tugriligini fiziologiyadan ingliz Charlz Bell va frantsuz Fransua Majandi tomonidan sezuvchi va xarakat nervlari urtasidagi tafovutlarning kashf etilishiga olib kelgan ajoyib yutuklari xam tasdiklaydi. Orka miya nerv tomirlarini kuzgatish turlicha natijalarga olib keldi. Mushaklar fakat oldindagi tomirlar kuzgatilgandagina uzgargani kuzatildi. Sezuvchi nervning uchlari

kuzatilganda, bu nervdan orka miyadagi nerv markazi orkali impuls xarakatlantiruvchi nerv bulib mushakka utadi. Ana shu yulning xammasi reflektor yoyi degan nom oldi.

1.2. Qobiliyat va uning yoshga xos xususiyatlari

Milliy istiqlol sharofati bilan jamiyatimizda amalga oshirilayotgan ma'naviy yangilanishlar, birinchi navbatda yosh avlod ongiga ma'naviy-axloqiy an'analar, insonparvarlik va demokratiya qadriyatlarini singdirishga xizmat qilmoqda. Davlatimiz rahbari I.A.Karimov ta'kidlaganidek, ozod, har jihatdan barkamol, yuksak mas'uliyat va burch hissiga ega "...o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan shaxs, fuqarolarni voyaga yetkazish va hayotga yo'llash hozirgi muhim vazifalardandir".

Mustaqillik yillari mobaynida jamiyatda shunday ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhit, qadriyatlar yuzaga keldiki, ular odamlarning, ayniqsa, yosh avlodning o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi nazorat qilish darajasiga va bu xususiyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limga yangicha talablarni qo'ymoqda.

Yurtboshimiz I.A.Karimov zamonaviy ta'lim tizimi yangicha fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'lishi lozimligini uqtirib, "...ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. Bu ta'lim orqali biz o'zining qadr - qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz"- degan edilar.

Respublika Prezidenti I.A.Karimov o'zining "O'zbekiston Konstitutsiyasi biz uchun demokratik taraqqiyot yo'lida va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mustahkam poydevordir" nomli ma'ruzasida barkamol avlodni tarbiyalash borasida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: "Barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish, dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi ... Aynan mana shunday har tomonlama yetuk avlodgina bugun hayot oldimizga qo'yayotgan o'ta murakkab,

og'ir sinov va qiyinchiliklarni yengish, biz ko'zlagan yuksak marralarni egallashning eng asosiy sharti ekanini hammamiz yaxshi tushunamiz". SHuningdek, yurtboshimiz "Eng asosiy mezon hayot haqiqatini aks ettirish" asarida shuni alohida qayd etgan edilarki "... odamning irodasi baquvvat, dunyoqarashi keng bo'lishi uchun uning hayotga, ertangi kunga, o'zining kuch va imkoniyatlariga ishonchi mustahkam bo'lishi kerak".

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida I.A.Karimov ma'naviy boylik sifatida irodali insonlar borasida quyidagicha fikr yuritadilar: "Hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi, keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar mavjud. SHunday paytda ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda, o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqa oladi. Ma'naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi".¹

Qobiliyatlar o'zi nima? «Qobiliyatlar» psixologiyada keng va anchadan beri foydalanganligiga qaramay turli adabiyotlarda turlicha talqin etiladi. Masalan: «Qobiliyatlar – inson ruhiyatining xususiyati bo'lib, u barcha psixik jarayonlar va holatlarning yig'indisi sifatida tushuniladi». Ushbu tushunchaning kamchiliklari nimadan iborat? Bu tushuncha asoschisi Xrestian Vol'f hisoblanib, uning nazariyasiga ko'ra barcha psixik hodisalar qobiliyatlar kategoriyasiga kiritilgan. Bunday yondoshuvda muayyan qobiliyatlar tizimini aniqlash mumkin emas edi. Qobiliyatlarni inson hayotidagi ahamiyati ham aniqlanmagandi. Shuning uchun bu tushuncha psixologiyada keng tarqalmadi. XIII-XIX asrlarda «Qobiliyat bu umumiy va maxsus bilim, malaka va ko'nikmalar yig'indisi bo'lib, u turli faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlaydi». Yangi qarashlar yuzaga keladi. Ushbu tushuncha to'g'rimikan, uning kamchiligi nimada ekan.

Qobiliyatlar bilimlar, ko'nikmalarda emas, balki ularni egallash dinamikasida yangi bilim, ko'nikmalar, qanday sharoitda tez, chuqur va oson

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.: Маънавият, 2008. – Б.123.

egallanishida namoyon bo`ladi. Bu tushunchadan bugungi kunda ham foydalaniladi. Shunday qilib, qarama-qarshiliklarni engish hamda haqiqatni izlash natijasida olimlar quyidagi xulosaga keldilar. «Qobiliyatlar – shaxsning individual xususiyati bo`lib, unga bilimlar, ko`nikmalar va malakalarni o`zlashtirishining to`liqligi, tezligi, engilligi, chuqurligi hamda turli faoliyatni o`zlashtirish va uni muvaffaqiyatli bajarishga bog`liqdir». Bu tushunchani psixologiyaga yirik rus olimi B.M.Teplov kiritgan bo`lib, bugungi kunda keng tarqalgandir. B.M.Teplov qobiliyatlarning umumiy nazariyasini ishlab chiqishga o`z hissasini qo`shgan. Uning fikricha qobiliyatlar tushunchasi o`z ichiga uch g`oyani qamrab oladi. Birinchidan, qobiliyatlar deganda bir odamni boshqasidan ajratib turadigan individual psixologik xususiyatlar tushiniladi..... Ikkinchidan qobiliyat deganda har qanday individual psixologik xususiyatni emas, biror bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarilishini ta`inlovchi xususiyat tushuniladi. Uchinchidan qobiliyatlar odamning bilimlari, ko`nikmalari va malakalariga tenglashtirilmasligi lozim.

Bu bilim va ko`nikmalar egallash imkoniyatining haqiqatga aylanishi ko`plab sharoitlarga bog`liq bo`ladi. Ushbu shart - sharoitlar quyidagilardan iborat: tevarak atrofidagi odamlar oilada, maktabda, mehnat jamoasida kishilarning bu bilim va malakalarini egallab olishdan manfaatdorligi ta`lim va mehnatning tashkil etishini va boshqalar. Qobiliyatlar asosan faoliyatda namoyon bo`ladi. Bunda ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirish mumkin bo`lmagan faoliyatlardagina namoyon bo`ladi. Qobiliyatlar bilim ko`nikma va malakalarning o`zida emas, balki analizlarni egallash jarayonida namoyon buladi. Qobiliyatlar shaxsning individual psixologik xususiyatlardan bo`lib ularni shaxsning aql farosat, xotira, xarakter emotsional xususiyatlarga qarama-qarshi qilib bo`lmaydi.

Psixologiyada tabiiy va maxsus qobiliyatlarga ajratiladi.

Tabiiy qobiliyatlar - bu idrok, xotira, tafakkur va boshqa oddiy psixik jarayonida namoyon bo'lish qobiliyatidir. Insonda ijtimoiy muhitga moslasha olish qobiliyati mavjuddir. Bu umumiy va maxsus aqliy qobiliyatlar, nutq va mantiqdan foydalanganda shaxslararo, predmetlararo munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Umumiy qobiliyatlar – insonni turli faoliyat yo'nalishlarida muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Maxsus qobiliyatlar - insonni biror bir maxsus faoliyat yo'nalishidagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi va uning namoyon bo'lishi uchun maxsus layoqat bo'lishi lozim. Bunday qobiliyatlarga musiqaviy, matematik, texnik, pedagogik va boshqalar kiradi.

Musiqaviy qobiliyatlar – B.M.Teplov tomonidan o'rganilib, «Psixologiya muzikal'n'x sposobnostey» kitobida keng ochib berilgan.

Matematik qobiliyatlar – Krutetskiy tomonidan o'rganilgan. U «Matematik qobiliyatlar psixologiyasi» monografiyasida matematik qobiliyatlar va ularning tizimini keng yoritib bergan. Idrok, tafakkur, xotira, xayolning individual xususiyatlarini aniqlab, ularni matematik faoliyatda namoyon bo'lishini tadqiq qilgan.

Tasviriy san'atga xos qobiliyatlarni – V.I.Krienko o'rgangan. U «Tasviriy faoliyat qobiliyatlari psixologiyasi» kitobida tasviriy qobiliyatlarni psixologik tahlilini bergan.

Tashkilotchilik qobiliyatlarini uzoq vaqt L.I.Umanskiy o'rgangan. U tashkilotchilik qobiliyatlar tizimini yaratadi. Uning fikricha tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari lozim:

A) shaxsning yo'nalganligi

B) uning tayyorganligi

V) umumiy xususiyalar (Kirishimlilik, kuzatuvchanlik, faollik, tashabbuskorlik, qat'iylik, tashkilotchilik va o'z-o'zini boshqarish)

G) Maxsus xususiyatlar (Talabchanlik, tanqidiylik, psixologik kashfiyotchilik, tashkilotchilik faoliyatiga moyillik, emotsional, irodaviy ta'sir etish)

D) shaxsiy individual xususiyatlar.

Pedagogik qobiliyatlarni N.V.Kuzmina, F.N.Gonabolinlar o'rganganlar. Ular pedagogik qobiliyatlar tizimiga quyidagilarni kiritganlar:

A) didaktik qobiliyatlar – o'quv materiallini o'quvchilarga tushunarli, aniq, yoshiga mos holda o'qitish, ularda mustaqil fikrni shakllantirish.

B) akademik qobiliyatlar – turli fanlarga doir bilimga ega bo'lish.

V) perseptiv qobiliyatlar – o'quvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, psixologik kuzatuvchanlik, uning psixologik holatini to'g'ri anglay olish.

G) Nutq qobiliyati – fikrlarni to'g'ri, aniq, emotsional nutq orqali etkaza olish.

D) tashkilotchilik qobiliyati – o'quvchilar jamoasini birlashtira olish.

E) avtaritar qobiliyat – bevosita o'quvchilarga emotsional irodaviy ta'sir ko'rsata olish va shu asosida hurmat, e'tiborga erishishi.

J) kommunikativ qobiliyat – bolalar bilan muloqotga kirisha olish qobiliyati, pedagogik tajribaga ega bo'lish.

Z) pedagogik xayol – bu maxsus qobiliyat turi tashxis qo'ya olish qobiliyati asosida o'quvchi kelajagiga uning rivojlanishiga oldindan ko'ra olish orqali zamin yaratiladi.

I) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati – bir vaqtning o'zida diqqatni turli faoliyatlar orasida taqsimlay olishdir.

Texnik qobiliyatlar muammosini – M.G.Davletshin o'rgangan.

Bola tug'ilganidayoq insoniyat madaniyatini o'zlashtirishga bo'lgan universal qobiliyat, inson bo'lib etishish patentsial imkoniyati unga meros berilgan bo'ladi. Bu universal qobiliyat funktsional kuchlar bo'lishi mumkin bo'lgan insoniy malakalar "tik yurish, gapirish, fikrlash, eslab qolish va x.k. mexanizmi sistemasini o'z ichiga oladi. Biroq bu imkoniyatlarning hammasi tegishli ijtimoiy

va moddiy muhim maqsadga qaratilgan ta'lim tarbiya bo'lgandagina ruyobga chiqishi mumkin. Ko'p funktsiyalarning potentsial imkoniyatlarning va mexanizimlarining xususiyatlari shunday, ular qat'iy aniq bir vaqtda paydo bo'lib rivojlanadi va ularni kontservatsiya qilib (to'xtatib turib) bo'lmaydi.

Bironta ham funktsiya rivojlanishini qulayroq vaqtga qoldirib bo'lmaydi. Qobiliyatlarning sifat va miqdor xarakteristikasi. Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qarashli maqsadga muvofiq. Har xil yo'llar bilan borishga imkon beruvchi "O'zgaruvchan miqdor to'plashi sifatida faoliyat muvaffaqiyatlarning murakkab birikmasi sifatida namoyon bo'ladi. Odamning qobiliyatida mavjud imkoniyatlar bir-birining o'rnini bosadi. Masalan: ko'r, kar, soqovlarning usha nuqsonli a'zolari qobiliyati o'rniga aqliy qobiliyati o'sa boradi. Bir qobiliyatli boshqa bir qobiliyat orqali o'stirish yordami bilan o'rin almashish xususiyati ham bir odam oldida kasb tanlash va uni takomillashtirishning nihoyatda keng imkoniyatlarini ochib beradi. Umuman olganda qobiliyatlarning sifat xarakteristikasi odam mehnat faoliyatining qaysi sohada osonlik bilan o'zini topa olishga bog'liqdir. Qobiliyatning miqdor xarakteristikasi muammosi psixologiyada katta tarixga ega muammodir. Aqliy iste'dod o'zining mazmuniga ko'ra muvaffaqiyatga echilishi ballar yig'indisi bilan hisoblanadigan qator savollardan yoki masalalardan iboratdir. Qobiliyatlar murakkab tuzilishga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Anik qobiliyatlar tuzilishini tashkil qiluvchi shaxsning hislatlari va xususiyatlari orasida ayrimlari etakchi o'rinni egallasa, ayrimlari yordamchilik rolini o'ynaydi. Masalan pedagogik qobiliyatlar tizimida etakchi sifat pedagogik takt, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, ularga nisbatan yuqori talabchanlik, bilim berishga nisbatan ehtiyoj bo'lsa, tashkilotchilik va boshqa qobiliyatlar yordamchi qobiliyatlarga kiritiladi. Shaxs ning umumiy qobiliyatlari yoki umumiy xususiyatlari, ularni hosil qiluvchi omillar konkret psixologik hodisadir. Konkret faoliyat sharoitida qobiliyat tarzida namoyon bo'la oladigan shaxsning umumiy sifatleri jumlasiga "badiiy tip" "fikrlovchi tip" kiritilib, "badiiy tip" uchun bevosita taassurot va "fanni tasavvur" emotsiyalar natijasida hosil bo'ladigan obrazlarning yorqinligi xos bo'lsa "fikrlovchi tip" uchun

mavhumiylik, mantiqiylik, nazorat mulohazalar ustunligi xosdir. Talant, uning paydo bo`lishi va tuzilishi ularning tuzilishi, talant va mahorat, talant va qobiliyatning tabiiy shakllari, qobiliyatlariga fantastik qarashlardagi xatoliklar, layoqat qobiliyatning tarkibiy tomonida va uning rivojlanishida ta'limning ahamiyati, qiziqish va ijobiy qulay muhitning zarurligi kabi masalalar ko`riladi.

Demak, qobiliyatlarda bir necha darajalarga ajratish mumkin: iste'dod, talant, daholik.

Iste'dod – insonda qobiliyatlarning rivojlanishini tabiiy zamin.

Talant – inson qobiliyatlarini rivojlanishining yuqori bosqich bo`lib, u biror bir faoliyat turida katta yutuqlarga erishishga xizmat qiladi.

Daholik – insonda biror bir qobiliyatning eng yuqori bosqich bo`lib, u insonni biror bir faoliyat turida buyuk shaxs qilib ifodalaydi. Har bir insonning qobiliyat va iste'dodi taraqqiyot mahsulidir. Kishining qobiliyati uning tug`ma layoqati asosida, muhitga bog`liq ravishda, olayotgan ta'lim-tarbiyasiga qarab, o`sib kamol topib boradi. Qobiliyatlarning rivojlanishiga tabiiy zamin bo`luvchi xatti-harakat, his qilish organlari va miya tuzilishdagi morfologik va funktsional xususiyatlar layoqat deb ataladi. Inson muayyan layoqat bilan tug`iladi. Tug`ma layoqat tayyor kamolatga etgan qobiliyat emas. U kishidagi tug`ma imkoniyatdir. Inson qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim omillari qiziqishlardan iborat. Inson xos bo`lgan turli qiziqishlar orasida har bir kishining biron bir sohaga barqaror havasi shu kishi uchun muhim bo`lgan qiziqish bo`ladi. Shunday qiziqishning bo`lishi shaxsning individual xususiyatini tashkil qiladi. O`quvchilardan o`kuv fanlariga va o`zining kelgusidagi kasbiga qiziqishning bo`lishi bilimlarni ongli mustahkam o`zlashtirishning muhim shartidir. Faoliyatning biror turi sohasida qobiliyatning paydo bo`lish darajasi muayyan kishining individual xususiyati bilan xarakterlanadi.

Qobiliyatning bunday xususiyatlari maktab bolalarida ham ko`rinadi. Ba'zi bir o`quvchilar o`zlarining zehni o`tkirliklari bilan, boshqalari poetik asarlarni aniq idrok qilishliklari bilan, uchinchi esa, texnik ijodkorligi bilan, to`rtinchisi esa,

o'zining laboratoriya mashg'ulotlariga usta bo'lish va hokazolar bilan ajralib turadi.

Ayrim kishilarning qobiliyati birgina sohada emas, balki bir necha sohalarda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunday kishilar har tomonlama qobiliyatli kishilardir. Odamning qobiliyatlarida tug'ma xususiyatlar ham namoyon bo'ladi.

Shaxsning rivoj topib, qobiliyatlarida namoyon bo'ladigan tug'ma xususiyatlari iste'dod deyiladi.

Kishining iste'dod darajasini undagi muayyan qobiliyatlarning qanchalik tez o'sishiga, bilim va malakalarni qanchalik egallashiga hamda o'z ishini qanchalik muvaffaqiyat bilan va samarali bajarishiga qarab aniqlaymiz.

Qobiliyat va iste'dodda kishining aqli (intellekti) ham, ya'ni idrok va kuzatuvchanligining, tafakkur, xayol, nutq va xotiraning qanchalik o'sganligi ham ko'rinadi. Aql faoliyati diqqat va iroda bilan bog'liq bo'lgani uchun qobiliyat va iste'dod diqqat va irodaning qanchalik kuchli va barqarorligida ham ko'rinadi. Kishining qanchalik kuzatuvchan ekanligi, bilimlarni qanday o'zlashtirishi, nazariy va amaliy masalalarni qanday hal qilishi, qanday qimmatli yangiliklar yaratishi, va o'z bilim va malakalarini turmushga qanday tatbiq qila bilishidan ham, kishining qobiliyat va iste'dodini bilish mumkin.

Qobiliyat va iste'dodni bilim yoki ma'lumotga teng baravar deb, ya'ni u bilan aynan bir narsa deb qarash yaramaydi. Kishining muayyan bir xildagi qobiliyati va iste'dod darajasi uning ma'lum sohada bilim va ko'nikma hosil qilish tezligi darajasi bilan belgilanadi. SHuningdek, qobiliyat amalda qo'llay olish va ijodiyotda undan foydalana bilishda ham ko'rinadi. Bilim olish va ko'nikma hosil qilish esa, o'z navbatida, qobiliyat va iste'dodning yuzaga chiqishiga va o'sishiga sabab bo'ladi.

Ma'lum soha yoki biror ixtisos bo'yicha faoliyat samarasi jihatidan odamlarning qobiliyat darajasi har xil bo'ladi. Ba'zi odamlar o'zining yuksak darajali qobiliyatlari bilan boshqa odamlardan ajralib turadi. Bunday odamlarning talantli va genial deyiladi, ularning yuksak qobiliyatini esa geneallik va talantlilik deyiladi.

Qobiliyat odatda ishtiyoq va moyillik bilan bog'liq bo'ladi. Muayyan faoliyatga bo'lgan moyillik va unga bo'lgan qobiliyat, ko'pincha, bir-biriga mos keladi, birgalikda o'sadi. Kishidagi moyillik ko'pincha, undagi mavjud qobiliyatlarning ko'rsatkichi bo'ladi.

Geniallik va talantlilik haqida

Genial yoki geniy deb biz shunday kishilarni aytamizki, ular nihoyatda katta masalalarni hal qiladilar, butun bir sinf yoki xalqlar uchun, barcha insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, misli ko'rilmagan qimmatli narsalar yaratadilar. Bunda ular yaratgan narsalar tarixda go'yo burilish nuqtasi bo'lib xizmat qiladi, tarixni oldinga progressiv tomon harakatga keltiruvchi madad bo'lib xizmat qiladi. Masalan, biz Alisher Navoiyning genial shoir deb hisoblaymiz chunki, u shunday asarlar yaratdiki, uning asarlari dunyodga kelishi bilan o'zbek adabiyotida o'zbek tili taraqqiyotida yangi bir davr boshlandi.

Talantli deb shunday odamlarni aytiladiki, ular ma'lum sohada murakab nazariy va amaliy masalalarni hal qilishga, yangilik va progressiv ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli narsalar yaratishga qodir bo'ladilar. Talantli odam, talantli yozuvchi va talantli shoir, talantli rassom, talantli konstruktir deganda biz buni ana shu ma'noda tushunamiz.

Talantli deb shuningdek, bilimlarni tez, muvaffaqiyat bilan o'zlashtirib oladigan va shu bilimlarni turmushda, o'z faoliyatlarida to'g'ri tatbiq qiladigan odamlarni ham aytiladi. Talantli o'quvchi, talantli student, talantli skripkachi va talantli pianist, talantli injener deganda biz buni ana shu ma'noda tushunamiz.

Geniy – bu yangilik yaratuvchi va kashf qiluvchi odam, talantli deb, bu yangiliklarni tez o'zlashtirib oladigan va shu bilimlarni turmushda tatbiq qilib, ularni oldinga suradigan odam deyish mumkin. Har bir geniy talantli ham bo'ladi, biroq har bir talantli odamni genial deb bo'lmaydi.

Genial va talantli odamlarning aql-idroki nihoyat o'sib, voyaga yetgan, zehni o'tkir, xotirasi kuchli, xayol va tafakkuri barkamol kishilar bo'ladi. Ammo geniallik va talantlilik faqat aqlning kuchli sur'atda o'sganligidagina ko'rinib qolmaydi. Kuchli, barqaror diqqat, zo'r ehtiros, kuchli va mustahkam iroda ham

yuksak qobiliyat va iste'dod belgisidir. Hamma genial odamlarning o'z ishiga muhabbati va ehtirosi zo'r bo'lgandir. Genial odam o'zini ham unitib, butun borligini ishga bag'ishladi. Butun hayotini o'z ishiga ehtiros bilan bag'ishlagan genial kishilarning irodasi nihoyat kuchli va sabotli bo'ladi. Ular kishini hayratda qoldiradigan darajada mehnatsevar va mehnat qobiliyatiga ega bo'ladilar.

Bunday kishilar faoliyatining serunum bo'lishi ulardagi butun bilish qobiliyatlarini, ijodiy, emotsional va iroda kuchlarini ma'lum narsaga to'play bilish qobiliyatlariga bog'liqdir.

Talantli va genial kishilarning juda ko'pi har tomonlama qobiliyatli bo'lganlar. CHunonchi, Aristotelъ , Leonardo da Vinchi, Lomonosovlar, Abu Ali Ibn Sino, M.Ulug'bek, Al-Forobiy, Qori Niyoziy, Navoiy, Usmon Nosir va boshqalar mana shunday bo'lganlar.

Tarixda bunday kishilarni ko'plab uchratish mumkin. Ular ulug' tashkilotchi va jamoat arbobi bo'lganlar.

II BOB. . O'smirlarda qobiliyatlarni rivojlantirish usullari

2.1 O'smirlik davrida qobiliyat ko'rinishlari va ularni rivojlantirish usullari.

Kichik yoshdagi o'quvchilardan farqli ravishda o'rta yoshdagi o'quvchilarning hayot kechirish tarzida jiddiy o'zgarishlar ro'y beradi. Oilada, maktabda va o'quvchilar jamoasida o'smirning mavqei sezilarli darajada o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga keltiradi. O'smirlarning oila a'zolari bilan ham yangicha munosabat o'rnatishlari lozim bo'ladi.

O'smir shaxsining takomillashuvi va shakillanishiga turtki bo'lgan omillardan biri o'quv faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishlardir. O'smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko'paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'quv motivlari ustuvor bo'lib boradi, lekin o'quv faoliyati motivlari orasida bilish, yangi bilimlarga ega bo'lish motivi kuchsiz bo'lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o'qishga og'rinib kelib, salbiy xis tuyg'ular va xavotirlik xislarini boshdan kechiradi. Kattalar tomonidan o'smirning yurish turishi, xulqiga javob berish talab qilinadi. O'smirga uning ilgari qondirilib kelinayotgan ehtiyoj va xohishlari endi qondirilmaslighi, ularning ko'pidan voz kechish lozimligi uqtiriladi. O'smir qiyinchilik bilan bo'lsada, o'zining yangi mavqeini tushuna boshlaydi, o'z xulqini o'zgartirib unga moslasha boradi.

Maktabda o'smirning mavqei yanada keskin o'zgaradi. Uni endi bir necha o'qituvchi o'qitadi. O'smir oldida har bir o'qituvchining o'ziga xos metod va usullariga moslashish, ularning talablarini anglab, bilib olish kabi murakkab vazifa turadi. Endi o'smir ko'pgina yangi o'quv fanlarini o'rganib olishi kerak bo'ladi.

O'smirning bolalar jamoasiga bo'lgan munosabati ham murakkablashadi. O'smirga o'zining o'qishi, mehnati va xatti- harakatlariga mas'uliyat bilan qarash jamoat topshiriqlarini aniq bajarish, bilim va ko'nikmalarni egallashda reja bo'yicha sistemali ravishda ko'tarila borish kabi avvalgidan ko'ra jiddiyroq talab quyiladi.

O'smirning oiladagi mavqeining o'zgarishi, maktabda o'qishning yangi sharoiti, bolalarning ijtimoiy hayotida murakkab munosabatlar o'rta yoshdagi o'quvchilar oldiga ko'pgina yangi talablar qo'yadi va ularning butun psixik hayotida yangi qiyinchiliklar tug'diradi. Avval mustahkam o'rnashib qolgan ko'nikma va malakalar yangi hayot kechirish tarziga ko'p jihatdan mos kelavermaydi. SHuning uchun o'smirlarning psixik jihatdan normal hayot kechirishi va o'sishini ta'minlash uchun o'smirlik yoshining o'ziga xos psixologik xususiyatlari e'tiborga olingan ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar qo'llanilishi zarur.

O'smirlik davri qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar « krizislar » « tanazzullar » davri ham deb ataydilar. Sababi o'smir ruhiyatida shunday inqiroziy holatlar ro'y beradiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi hal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, o'zi hal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetmaydi.

Psixologik jihatdan o'sishida uning ruhiyatida keskin burilishlar yuz beradi. Bu ko'rinishlarni biz ularning karakter xususiyatidagi « og'ish » liklarda ko'rishimiz mumkin va bu og'ishliklar ularning xatti-harakatlaridagi « portlash » va agressiyaga (tajovuzkorlikka) moyil bo'lgan affektiv qo'zg'aluvchanlikdir. Bu holat ko'pincha ijtimoiy adaptatsiyaning (moslashishning) buzilishini, jumladan qonunbuzarlikning sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki affektiv qo'zgaluvchanlik ko'p jihatidan o'smirlik davriga to'g'ri keladi. Bu holat me'yorda ham kuzatiladi. Uning vujudga kelishi bu yosh fazasining vegetativ endokren sistemaning qayta qurilishi bo'lsa psixologik o'zgarish portlash va agressiyaga (tajovvuzkorlik) moyil bo'lgan affektiv qo'zg'aluvchanlikdir. Bu holat ko'pincha ijtimoiy adaptatsiyaning (moslashishning) buzilishini, jumladan, qonunbuzarlikning sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Ammo psixik sog'lom atrof muhitning qulay sharoitlarida tarbiyalanayotgan o'smirlarda affektiv qo'zgaluvchanlik adaptatsiyaning buzilishiga olib kelmaydi.

O'smir shaxsi xarakteridagi og'ishlarning shakllanishi ularning tiplarini aniqlash, tibbiy psixologik va tibbiy pedagogik ishlarni aktiv olib borish uchun zarurdir.

Hulq - atvori og'ir o'smirlarning shaxsi shakllanishiga ko'pchilik hollarda oilaviy shart-sharoitlar, ota-onaning yoki qarindoshlar-ning ichkilikbozligi, ularning axloqqa zid hulk-atvorlari salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tarbiyasi og'ir o'smirlar uchun odatda o'qishga, umum e'tirof etgan qoidalarga nisbatan zid munosabat bo'lib, oxir- oqibatda bu uni sinfiga, maktabga, bilim yurti jamoasiga, qarama- qarshi qilib qo'yadi. Aksariyat hollarda tarbiyasi qiyin o'smirlar- ichki salbiy munosabatlar natijasida maktab jamoasida o'z o'rnini topa olmagan o'quvchilar bo'lib chiqadi. O'smirlik yoshida katta yoshdagilar, ota-onalar va o'qituvchilar bilan kelishmovchiliklar ro'yobga chiqadiki, bu faqat tabiiy o'sish jarayoni bilangina emas, balki, o'smirni katta yoshdagilar va tengdoshlararo munosabatlari o'zgarishi bilan izohlanadi . Tengdoshlar bilan doimiy muloqotga ehtiyojning kuchayishi, o'zligini tasdiqlashga intilish,tengdoshlarining o'zi haqidagi fikr mulohazalariga ta'sirchanlik o'smirlik davriga xos xususiyatlardir.

Psixolog tadqiqotchilar tarbiyasi qiyin o'smirlarning vujudga kelishiga ijtimoiy muhitdan tashqari, pedagogik, psixologik sabablar ham borligini ko'rsatadi. Nazariy mulohazalar analizi, o'smirlarning xatti-harakatlari motivini sistemali o'rganish jarayoni tarbiyada me'yordan chetga og'ish sabablari, xilma-xil ekanligini ko'rsatadi.

Balog'at davrida o'qituvchilar, ota-onalar va jamoatchilik o'smirni nazoratsiz qoldirishi, bo'sh vaqtini to'g'ri uyushtirmasligi, o'qishga nisbatan salbiy munosabat, sinf jamoasi bilan aloqani yomonlashuvi, spirtli ichimlikka o'rganish, tajovuzkor, serzardalik tarbiyasi qiyin o'smirlarni keltirib chiqaruvchi muhim omillardan bo'lib hisoblanadi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlarni o'rganishda ijtimoiy muhitdan tashqari pedagogik-psixologik sabablar mavjudligini hisobga olish, qonunbuzarlikni kelib chiqish sabablarini diagnostika yordamida aniqlash, tarbiyasi qiyin o'quvchilar shaxsini aniqlash ularning psixologik munosabatlarini inobatga olgan holda

tipologiyasini tuzish tipologik xususiyatlarga binoan individual ish olib borish, qonunbuzarlikni oldini olib va tarbiyasi qiyin bolalarni qayta tarbiyalash metodlarini amalga tadbiq qilish, bu muammoni yechilishiga yordam beradi.

Yuqorida ta'kidlangan nomaqbul oilaviy shart- sharoitlar bilan birga tarbiyasi qiyinlikni keltirib chiqaruvchi maktab, qarindosh- urug', mahallalarni bolalar tarbiyasiga e'tiborsizligini ham kiritishimiz mumkin. Biroq yomon ota-onaning bolasi albatta yomon bo'ladi deb hisoblash xatodir. O'smir nomaqbul tashqi ta'sirlarni o'z istaganicha rang- barang tarzda idrok etadi va o'zlashtiradi. U salbiy ta'sirlarni qabul qilmasligi, rad etishi, ularga qarshi kurashishi ham mumkin.

Shaxsning ahloqiy jihatdan tarkib topishi, ahloqiy ongning tarkib topishi, xatti - harakatlarining axloqiy - etik tushunchalarini o'zlashtirishi o'smirlik yoshining muhim psixologik xarakteristikasidir.

O'smirlik yoshida faqat jismoniy taraqqiyot yuzaga kelmay, balki bolaning shaxsi ham sezilarli rivojlanadi. Bola shaxsining rivojlanishi tevarak-atrofdagi voqelikning ta'siri ostida maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining ta'sirida jamoa va tarbiyachilarning g'oyaviy rahbarligi ostida amalga oshadi. Ota-ona va tarbiyachi shuni nazarda tutishi lozimki, xuddi anashu yoshda ahloqiy ong taraqqiyotiga zamin qo'yiladi. O'smirning qanday ahloqiy tajriba orttirishiga, qanday ahloqiy faoliyatni amalga oshirishiga qarab uning shaxsi ham tarkib topa boshlaydi.

Lekin xuddi mana shu o'smirlik yoshi ahloqiy jihatdan tez rivojlanish yoshi bo'lganligi tufayli shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko'pincha o'smir ongida, tarbiyachi o'quvchi ongiga singdirmoqchi bo'lgan xislatlarga qarama—qarshi unda ahloqiy tushunchalar tarkib topishi mumkin.

O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-harakatlarini anglashdan boshlanadi, undan so'ng o'zlarining ahloqiy sifatlarini, xarakterlarini va o'z qobiliyatlarini anglashdan boshlanadi.

Dastavval ta'lim faoliyatini bajarish bilan bog'liq bo'lgan sifatlar (mehnatsevarlik, matonat, diqqatlilik, tirishqoqlik) anglana boshlanadi. Undan so'ng boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (o'rtoqlik xissi, mehribonlik, vazminlik, qaysarlik xissi) anglanadi. Undan ham keyin o'z-

o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (kamtarlik, o'z-o'zini tanqid qilish, maqtanchoqlik, takabburlik) anglanadi. Nihoyat, shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarni ifodalovchi murakkab sifatlar (burch xissi, qadriyat va vijdon xissi, maqsadga intilish xissi) anglanadi.

O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psi-xologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlarini, ya'ni jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va boshqalarning mazmun mohiyati o'zgaradi. O'smir hayotida uning ruhiyati, organizmining fiziologik hamda ijtimoiy holatida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aksariyat holatlarda ularda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli xil holatlar kuzatiladi. Bu davr-ga kelib bola endi « bola » emas va shu bilan birga hali « katta » ham emas. Uning o'z-o'ziga va atrofdagilarga nisbatan bo'lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etib boradi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo'nalganligi qaytadan shakllanadi, o'z-o'zini anglashi, o'z-o'zini baholashi, qadriyatlari tizimi o'zgaradi. Uning uchun o'z «men » i va shu « men »ning ahamiti ortadi. O'smir endi « yosh bola» emas, endi u « katta odam », katta odam esa mustaqil bo'lishi, o'z muammolarini o'zi hal qilishi kerakligini tushunadi. Bu davrda kattalar yordamiga murojat qilish tengdoshlar tomonidan qoralanadi va buni o'smirning o'zi ham hohlamaydi. Bu davrda o'smirlarga kattalar tomonidan oldingidek ko'rsatiladigan iltifot, erkalashlar erish tuyuladi. Endi ular o'zlarini erkalab, silab-siypalashlarini «arzimagan narsalar» uchun kattalar tomonidan bildiriladigan olqishlarni yoqtirmaydilar. Endi ular atrofdagi-larni hissiy qo'llab-quvvatlashlaridan holiroq bo'lishga o'z muammolarini o'zlari shaxsan hal qilishga intiladilar. Oldinlari ko'chada, bog'chada, maktabda yuz bergan voqealar haqida uyidagilarga shikoyat qilib, ota-onasidan yordam so'ragan bo'lsalar, endi oiladan tashqarida birontasidan dakki eshitib, kaltak yeb kelgan taqdirda ham bu haqda ota-onasiga bildarmaslikka harakat qiladi va imkon qadar ota-onalarini uning « ishlariga» aralashmasliklarini hox-laydilar. Bularning barchasi o'smirlarda kuzatiladigan « kattalik hissi» ning ta'siridir. O'smir tengdoshlari bilan tenglik asosida qilingan muammolar munosabat asosida alohida bir ijtimoiy mu-nosabatlar

maktabini o'taydi. O'zaro qiziqishlar, atrof dunyoni, bir-birlarini anglashlari va tushunishlari ular uchun juda qimmatli-dir. O'smir o'z ishlarini, sirlarini endi otalariga emas, balki tengdoshiga ko'proq ishonadi. U o'z tengdoshlari bilan muloqat va munosabat jarayonida o'z shaxsini erkinlik bilan to'la namoyon etadi. SHaxsiy erkinlikni u katta bo'lish huquqi deb anglaydi. O's-mirlar o'zini xurmat qilishini, o'z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar.

Balog'at davrida o'g'il qizlar o'zlarini kattalardek xis etish bilan birga boshqalar ham ularni aqilli, xushli, or-nomusli, katta odam deb hisoblashlarini xohlaydilar. Katta yonidagi begona kishilarga taqlid qilish odati kuchayadi. Atrofdagilarning nima bilan shug'ullanayotganligi, nimaga e'tibor berayotganligi, o'zlarini qanday tutayotganligiga razm soladilar. Tabiiyki, o'smirda o'ziga yoqib qolgan, ko'ngliga ma'qul tushgan shaxsday bo'lish havasi tug'iladi. Ammo afsuski, kattalar boladagi ana shunday o'zgarishlarni yo payqamay qolishadi, yoinkim sezishsa ham u narsalarga durust ahamiyat berishmaydi. Kattalar tomonidan o'rinsiz tanbeh berish, kesatish, do'q-po'pisa qilishlar o'smir hissiyotida noxush kechinmalarni vujudga keltiradi. Mazkur davrda u o'ta ta'sirchan, hamma narsani ko'ngliga yaqin oladigan bo'lib qoladi. Turmush jarayonida ta'lim va tarbiyada buni hisobga olish darkor. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zini kattalardek xis qilayotgan o'smirda biror yumush buyurganda uddalay olishiga ishonch bildirgan yo'sinda « sen endi katta bolasan, bu ish qo'lingdan keladi » kabi so'zlar bilan murojaat qilish uning quvonchiga quvonch qo'shadi.

O'zimiz sezmaganimiz holda o'smir tarbiyasida katta va qo'pol xatoga yo'l qo'yamiz. Bu beparvolik oqibatida zavq- shavqqa to'lib, voyaga yetib kelayotgan o'smir noto'g'ri yo'lga kirib ketishi ham mumkin. Negaki, xuddi shu yoshda yaxshidan ko'ra yomon odatlarga berilish mayli unda kuchliroq bo'ladi. SHuning uchun o'smir bola shaxsiga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish kerak.

Shunday qilib, o'smirlik yoshida bolada kattalik hissini tarkib topishida o'z-o'zini anglashning ahamiyati va roli kuchaya boradi. Demak ,mana shu davrda

bola muhit o'rtasidagi munosabatning yangi tipini belgilovchi taraqqiyotning ichki faktorlari borgan sari ko'proq ahamiyat qozona boshlaydi. O'smir o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini o'stirish orqali mustaqil o'sish qobiliyatiga ega bo'lib qoladi.

O'smirlik yoshida maktab va maktabdan tashqari muassasalar ta'lim-tarbiya ishining ta'siri ostida, fan asoslarini o'rganish ta'siri ostida o'smirlarda faoliyatning u yoki bu turiga qobiliyatlar tarkib topa boshlaydi. Kichik maktab yoshida ham, hatto maktabgacha tarbiya yoshida ham qobiliyatlarning namoyon bo'lish hollari yuz beradi, albatta. Lekin bu qobiliyatlar(tegishli ko'nikma va malakalarni nisbatan tez hamda oson egallash, ob'ektiv tarzda yuqori natijalarga erishish nazarda tutiladi) ayniqsa o'smirlik yoshida chinakamiga rivojlana boshlaydi. Buning sababi shuki, ayniqsa o'smirlik yoshida chuqur, ta'sirchan, barqaror qiziqishlar yuzaga keladi, tevarak atrofga ongli, aktiv munosabat tarkib topadi, mustaqil ijodiy tafakkur taraqqiy etadi.

Birinchi navbatda musiqa, badiiy-tasviriy, adabiy-ijodiy qobiliyatlar yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Matematikani jiddiy va sistemali o'rgana boshlaganligi munosabati bilan matematika bo'lgan qobiliyatlar tarkib topadi. Matematika va fizikani o'rganish asosida o'smir o'g'il bolalarda konstruktorlik-texnik qobiliyatlar juda sezilarli darajada tarkib topadi.

O'smirlar turli bilimlar to'garaklarining va ijodiy to'garaklarning faol ishtirokchilaridir. Ularda uncha murakkab bo'lmagan musiqa asarlari va qo'shiqlarni mustaqil ravishda ijod qilish, bo'yoqlar bilan rasmlar chizish, uncha katta bo'lmagan hikoyalar va ayniqsa tilning ifodali vositalaridan foydalanib, she'rlar to'qish ehtiyoji yaqqol namoyon bo'ladi. O'smirlarning adabiy ijodi ularda tarkib topgan hayotga munosabat va dunyoni his etish qobiliyatlarida, ularning tabiatni hayron qolarli darajada yaqqol idrok qilishlarida ifodalanadi.

2.2. Insonning qobiliyatlarini rivojlantiruvchi omilla.

Har bir odamning qobiliyat va iste'dodi taraqqiyot mahsulidir. Insonning qobiliyati uning tug'ma layoqati asosida, muhitga bog'liq ravishda olayotgan ta'lim-tarbiyasiga qarab, shuningdek kishining o'z ustida ishlashi bilan bog'liq holda o'sib, kamol topib boradi. Inson o'z mohiyati bilan ijtimoiy tabiiy zotdir. SHuning uchun ham unga xos bo'lgan barcha ruhiy holat va jarayonlar tabiiy kuchga, hayotiy kuchga egadir. Bu tabiiy kuchlar har bir insonga ota-onadan bevosita o'tadi va ular instinktlar, tug'ma layoqatlar tariqasida ijtimoiy munosabat va faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi.

Tug'ma layoqat – tayyor, kamolotga yetgan qobiliyat emas, balki qobiliyatning o'sishi uchun faqat tabiiy zamindir, u kelgusida qobiliyatga aylanmog'i mumkin. Bunday imkoniyatlar faqat tegishli sharoit mavjud bo'lgandagina ro'yobga chiqa oladi.

Tug'ma layoqatni irsiyat bilan aynan bir narsa deb tushunish yaramaydi. Layoqat irsiyat natijasigina bo'lib qolmay, balki, shu bilan birga ona xomilasida o'sish natijasi hamdir. Layoqat – kishidagi tug'ma imkoniyatdir.

Layoqat kishining butun umri davomida o'zicha o'sib, kamolotga yetmaydi. Layoqat hali kishida «mudrab yotgan» imkoniyatlardir. Bu layoqatning «uyg'onib» yuzaga chiqishi uchun tegishli ijtimoiy muhit ham bo'lmog'i lozim. Layoqatni xuddi uruqqa o'xshatish mumkin, urug'dan o'simlik ko'karib chiqishi, yetilib meva qilishi uchun qulay sharoit: tuproq, havo, quyoshning bo'lishi darkor. Kishidagi tug'ma layoqatning o'sib kamol topishi uchun zarur bo'lgan sharoitning asosi ijtimoiy muhitdir.

Ijtimoiy muhit layoqatlarning o'sib, kamol topishi uchun qulay yoki noqulay bo'lmog'i mumkin.

Qulay muhit kishidagi «mudrab yotgan» layoqatlarni uyg'otadi. Layoqatning o'smog'i uchun qulay sharoit bo'lishi kishining bolalik chog'larida ayniqsa muhimdir. Bolalar o'z o'yinlarida, odatda, kattalarga taqlid qiladilar. Taqlid qilish jarayonida bolalarda ma'lum bir layoqatlar dastlab uyg'ona boshlaydi. Muzikachilar, rassom yoki shoirlar, texnik xodimlar muhitida o'sgan

bolalarning ko'pchiligida layoqatning juda barvaqt uyg'onishi sababi ko'proq mana shundadir.

Noqulay ijtimoiy muhit sharoitida kishidagi tug'ma layoqatlarning «uyg'onmay» qolib ketishi mumkin. Bunday noqulay muhit kishida tasodifiy ravishda ko'rina boshlagan biron qobiliyat va iste'dod alomatlarini yo'qotib yuborishi yoki ularning paydo bo'lish vaqtini cho'zib yuborishi ham mumkin.

Milliy an'analar urf-odatlarimizning tiklanishi, milliy, umumbashariy va umumma'naviy qadriyatlarimizni hayotimizga tatbiq etilishi xalqimizning turmush sharoitini o'zgarishiga olib keldi. Jamiyatimiz uchun bilimdon, fidokor, iste'dodli yoshlarni tarbiyalash imkoniyati yaratildi. O'zbek xalqi yuksak aql-zakovatga dunyoni boshqarish qudrati, salohiyati, qobiliyatiga ega bo'lgan sohibqiron Amir Temur kabi sarkardalar, Al-Buxoriy, At-Termiziy, Bahovuddin Naqshband, Xo'ja Ahmad Yassaviy kabi ulug' muhandis majtahid ulamolari, Abu NasrForobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlari bilan birgalikda Ul-Umaviy, Hofiz SHeroziy kabi musiqashunos olimlari, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Ulug'bek kabi mutafakkirlari bilan faxrlanib qolmay, ularning ishlarini davom etishiga, fan sohasida yangiliklar yaratishga ham qodirdirlar.

Shuningdek, mamlakatimizda nomlari jahon fani tarixiga kirgan olimlarimiz ko'plab topiladi. Bizda madaniy saviyani oshirish, xalqimiz orasida ko'plab bunyodga kelgan talant va salohiyatlarni kamol toptirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Iste'dodning o'sib kamol topishi uchun faqat muhit ta'sirining bir o'zi kifoya qilmaydi. Bunda eng muhim narsa ta'lim va mahsus tarbiyadir. Qobiliyat ta'lim jarayonida, bilimlarni o'zlashtirish jarayonida, bilimlarning ijodiy qo'llanishida, tegishli ko'nikma va malakalar hosil qilish jarayonida, inson faoliyatida kamol topadi. Masalan, muzikachi bo'lish uchun tabiiy qobiliyat va qulay sharoit bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi, balki o'qish, muzika nazariyasini o'rganish, texnikani va mahsus fanlarni bilish kerak bo'ladi. Yaxshi uchuvchi,

injener, umuman qanday bo'lmasin har bir sohada mutaxassis bo'lish uchun tegishli ma'lumot va tarbiya olishi kerak.

Ta'lim jarayonida kishi mahsus ko'nikmalar va faoliyat texnikasini egallaydiki, ularsiz uning na iste'dodi yuzaga chiqadi va na qobiliyati o'sib yetiladi. «Men foydalangan texnikaning rivojlanganligi soyasidagina – deb yozgan edi A.N.Rimskiy Korsakov, - mening ijodiyotim yangi jonli kuchga ega bo'ladi va mening bundan buyon ijodiy faoliyatim uchun yo'l ochildi».

Ma'lumki, barcha yuksak iste'dodli kishilar ko'p va tirishib o'qiganlar. Iste'dod ayni ta'lim-tarbiya jarayonida, kishining tarkib topayotgan qobiliyatlarida ravshanroq ko'rina boshlaydi. CHunonchi, kishining, masalan, muzika, adabiyot, texnika, matematika va boshqa shu kabilarga bo'lgan iste'dodi ta'lim-tarbiya jarayonida oshkor bo'ladi.

Qulay sharoit, o'qitish va tarbiya odamdagi layoqatning barvaqt uyg'onishiga imkon beradi. Masalan, Rimskiy-Korsakov onasi kuylagan kuylarni ikki yoshdanoq, otasi pianinoda chalgan kuylarni to'rt yoshida takrorlar, xirgoyi qilar edi va otasidan eshitgan kichik muzika asarlarini tez kunda fortepianoda o'zi chala boshlagan. Motsart uch yoshdan boshlab klavesinani (pianinoga o'xshash muzika asbobini) chala boshlagan, eshitgan muzika asarlarini hayron qolarli darajada darrov esida qoldirgan. To'rt yoshida o'zi ham muzika asarlari yarata boshlagan. Gaydida to'rt yoshidayoq muzikaga bo'lgan qobiliyat ko'rina boshlagan. Prokof'ev sakkiz yoshida kompozitor bo'lib tanila boshlagan.

Rassomlik sohasida Rafaelning ijodiy qobiliyati sakkiz yoshida, Mikelanjeloda o'n uch yoshida, I.E.Repin bilan V.A.Serovda to'rt yoshida, V.I.Surikovda olti yoshida ko'rina boshlagan. Aleksandr Ivanov o'n bir yoshidayoq tasviriy san'at Akademiyasiga kirgan. Igor' Grabar' o'zi haqida: «Rassomlikka necha yoshda havas qo'yganligimni eslay olmayman, ammo rasm solmagan vaqtimni xotirlay olmayman», deydi.

Poeziya sohasida Pushkin va Lermontovlarning ijodiy qobiliyatlari juda erta ko'rina boshlagan. Pushkin to'qqiz yoshida Lermontov o'n yoshida, A.Navoiy

5 yoshida ijod qila boshlagan. Ularning 7-13 yoshlaridayoq asarlari bosilib chiqa boshlagan. Bayron bilan SHiller o'n olti yoshda yoza boshlagan.

Bizning maktablarimizdagi ta'lim-tarbiya ishlari bolalarga faqat bilim berish bilangina cheklanib qolmay, balki bolalarning barcha qobiliyatlarini o'stirishni nazarda tutgan holda olib boriladi.

Kishilar o'zidagi turli faoliyatlarga bo'lgan tug'ma layoqatlarini jamoada, o'z ustida tinmay ishlash jarayonida ro'yobga chiqaradilar. Maktablardagi sinf hamda jamoa, guruhlar, ilmiy to'garaklar, fan olimpiadalariga ishtirok etish, ilmiy anjumanlarga ishtirok etish tug'ma layoqatlarni qulay imkoniyatlaridir. SHuningdek, o'quv va mehnat faoliyatida odamning layoqatlari uyg'onadi va qobiliyatlari o'sadi, xalq talantlari shular jarayonida oshkor bo'ladi.

Har bir shaxsning o'zi aktiv xarakter qilgandagina ijtimoiy muhit, o'qish va tarbiya kishining layoqatini uyg'otmog'i va iste'dod hamda qobiliyatlarini o'stirmog'i mumkin. Kishining qobiliyatlari uning faoliyatini belgilabgina qolmay, balki kishining qobiliyatlari mana shu faoliyatda o'sadi va tarkib topadi.

Kishining o'z faoliyatiga qanday munosabatda bo'lishi katta ahamiyatga egadir. Agar kishi o'z ishini sevib, mehr bilan qilsa, u vaqtda kishining bu sohadagi salohiyatlari kuchliroq yuzaga chiqa boshlaydi, uning qobiliyat va mahorati tezroq o'sib boradi. Ishga muhabbat qo'yish – u ishga qiziqish, havas qo'yish demakdir. SHu sababdan kishining qobiliyati uning qiziqish-havaslari bilan mustahkam bog'liq va qiziqishning o'sib borishiga qarab, kishi qobiliyati ham o'sib boradi. Qiziqishlar esa hammadan ko'ra ko'proq, faoliyat jarayonida va o'sib borayotgan qobiliyatlarga bog'liq ravishda o'sadi.

Yuksak va olijanob maqsadlar kishining barcha ruhiy kuch va qobiliyatlarining o'sishiga katta stimuly bo'lib xizmat qiladi.

Durust, ayrim vaqtlarda kishining qobiliyati bilan havaslari bir-biriga mos bo'lmasligi ham mumkin, masalan, kishi ma'lum bir sohada qobiliyat ko'rsatadi, ayni vaqtda boshqa bir sohaga ham qiziqadi. Bunday hodisa ko'proq kishining qobiliyatlari hali to'liq tarkib topib yetmagan va oshkor bo'lmagan davrlarda uchraydi.

Qobiliyatning o'sishida mayyan faoliyatga qiziqish va muhabbat qo'yish bilan bir qatorda, kishi o'z ustida ishlashi, uning mehnat faoliyati hamda bilimlari, ko'nikma va malakalarini ijodiy ravishda – qo'llana olishi ham katta ahamiyatga egadir.

Ayrim kishilar bolalik va o'quvchilik chog'larida, ular uchun qulay sharoit bo'lishiga qaramay, hech qanday o'z zehni va qobiliyatlarini ko'rsata olmaganliklari ma'lumdir. Bunday kishilar keyinchalik sabot va chidam bilan o'z ustlarida mustaqil ishlashlari natijasida o'zlarining zo'r qobiliyatga ega ekanliklarini ko'rsatganlar.

Ko'p vaqtlardan beri shu narsa ma'lumki qobiliyat bilan o'zlashtirish hamma vaqt ham bir xil bo'lavermaydi. Masalan, Gogol' Nejdinskiy gimnaziyasida o'qiyotganida adabiyotdan «3», inshodan esa «2» baho olar edi. Mendeleev gimnaziyada «o'rta hol» o'quvchilardan biri bo'lib hisoblanishiga qaramasdan, keyinroq borib genial olim bo'lib yetishdi. A'lochi bo'lib o'qiganlardan ko'pchiligining oddiy xizmatchi bo'lib qolganligi ham sir emas.

Moskva matematika maktabiga asos solgan, hozirgi zamon matematikasida yangi oqim yaratgan atoqli olim, akademik Luzin maktabda o'qigan davrlarida matematika fanidan «2» bahoga o'qir edi, uyda matematikadan yordamchi o'qituvchi bilan tayyorlanar edi. O'sha o'qituvchining so'ziga qaraganda, Luzin fanga tamoman layoqatsiz edi.

Taniqli kinorejissyor S.M.Eyzenshteyn maktabda o'qigan vaqtida rasm darsidan faqat «3» baho olib o'qir edi. Lekin keyinchalik u o'z ustida tinimsiz ishlashi natijasida kinematografiya san'ati sohasida talantini ko'rsatdi.

Mashhur kishilar hayotini olib qarasak, ular ijodiyotida eng muhim o'rinni ishg'ol qilgan narsa ularning tinimsiz ishlash qobiliyatiga ega bo'lganliklari, belgilangan maqsad yo'lida oylab, yillab, o'n yillab ishlay bilishlari va charchamay unga erishish yo'llarini izlashlari bo'lgandir.

Ma'lumki, maktabdagi o'quvchilar orasida darslardan ulgurmaydigan bolalar ham uchraydi. Bunday o'quvchilarning darslardan ulgurmasdan orqada qolish sababini sinchiklab tekshirish shuni ko'rsatadiki, ularda o'qishga moyillik

bo'lmaydi yoki ular dars tayyorlash yo'llarini bilmaydilar. Tajriba shuni ko'rsatadiki, ularda o'qishga bo'lgan qiziqish va istak tug'dirish, shuningdek, ularda dars tayyorlash malakasini hosil qilish ularning darsdan ulgurib borishlariga imkoniyat beradi.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida har bir pedagog o'quvchilarga muayyan fanlardan bilimlar berish, malaka hosil qilish, ularning his va irodasiga ta'sir etish bilan bir qatorda, ularning har birini jamiyatning munosib quruvchilari bo'lib yetishishlari uchun tinmay o'z ustilarida ishlash lozim ekanligini ular ongiga singdirish kerak. O'quvchilarning kelajak mehnat faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlari faqat ularning maktabda oladigan bilim va malakalariga bog'liq bo'lmay, balki, asosan, o'zlarining bundan keyingi o'z ustilarida tinimsiz ishlashlari orqali yangi bilimlar hosil qilib borishlariga bog'liq ekanligini ularga uqtirib o'tish zarurdir. Kishining qobiliyat va iste'dodi mehnatda namoyon bo'ladi, shu bilan birga kishi qobiliyatining o'zi ham faqat sabot bilan mehnat qilish, tirishib tegishli bilim va malaka hosil qilish orqali kamol topadi.

O'smirlar qobiliyatlarini rivojlantirishda quyidagi omillarning o'ri alohida ahamiyatga ega.

- faoliyatning ijodiy xarakteri
- ijrochi uchun uning yuqori qiyinligi
- zarur motivatsiya va zarur emotsional tayyorgarlikni ta'minlash.

Bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish uchun eng hal qiluvchi sharoit ta'lim va tarbiyadir.

4. Bolaning aqliy iste'dod darajasi quyidagi usulda aniqlab beriladi:

aql yoshi $\times 100$

1 a q -----

bolaning haqiqiy yoshiga

Masalan, agar test savollari o'tkazilishi natijasida 11,5 yasharli va 14 yasharli 2 ta bola bir xil ballar yig'indisiga ega bo'lsalar /120 ball, ulardan har birining aqliy yoshi 11.5 bolaga tenglashtirilsa, bolalarning iste'dod darajalari quyidagicha bo'ladi.

11,5 x 100

1 a birinchi bola /11,5 yoshda /q ----- q109,5

10,5

11,5x100

2 a ikkinchi bola /14 yoshda / q ----- q82,1

Psixodiagnostika muammolari ikki asos bo'yicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Psixik funktsiyalar turiga ko'ra (Harakat, sensor)
2. Faollik turiga ko'ra (texnik faoliyat, badiiy faoliyat)

Motor qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan diagnostik metodikalar Anastazi, Kulagin, Morashuklar tomonidan ishlab chiqilgan. Bu testlar harakatlar tezligi va aniqligini muvozanatni saqlashni, qo'l va barmoq harakatlar tezligini o'rganishga qaratilgan. Hozirgi paytda psixomotor diagnostikalarning quyidagi turlari mavjud:

1. Konorning «Panjalar chaqqonligi» testi
2. Stronberkning «Chaqqonlik» testi
3. Kroufrotning «Mayda predmetlar bilan chaqqon harakat qilish» testi.

Sensor sezgi qobiliyatlarni aniqlashga qaratilgan metodikalar idrokni o'rganish orqali yuzaga keladi. Eshitish idrokini o'rganish uchun eshitish o'tkirligini diagnostika qiluvchi tovushlarni fondan ajratish, ovozning balandligi tembirini aniqlash o'rganiladi.

Psixodiagnostika – bu o'quvchi shaxsning individual psixologik xususiyatini aniqlash, o'quvchi shaxsini shakllantirish yoki psixik taraqqiyot belgilari haqida xulosa chiqarishdir. U ikkiga ajratiladi:

1. Rivojlantirish – o'quvchi shaxsni rivojlantirish (qobiliyatini rivojlantirish)
2. Korrektsiya – o'quvchining shaxsiy va psixologik taraqqiyotidagi noxushliklarini kuzatish.

Bugungi kunda Respublikamizda qobiliyatlarni shakllantirish muammosi ijtimoiy va davlat muammosiga aylangan. Ushbu muammoni hal qilish

maqsadida Respublika TASHXIS markazlari va barcha viloyat va tumanlarda shunday markazlar tashkil qilingan.

Bugungi kunda maxsus qobiliyatlari aniqlangan o'quvchilar o'zlarini iqtidorini namoyon qilgan holda kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarga ixtiyoriy-majburiy ravishda o'qishlarini davom ettirib, yo'llarini tanlamoqdalar. Bugungi kunda psixologiya fani bu yo'lda muhim o'rinlarini egallamoqda.

Zero, Prezidentimiz I.A.Karimov bu borada: «Biz o'z iste'dodli, fidoiy bolalarimiz, farzandlarimizga bilim va kasb cho'qqilarini zabt etish uchun qanot berishimiz kerak» degan fikrlar yuqorida bayon etilgan mulohazalarning yorqin dalilidir.

O'smir shaxsining taraqqiyotida eng muhim ko'rinishlardan biri, unda o'zini anglashning tarkib topishidir, o'zini shaxs sifatida anglash ehtiyojining tarkib topishidan iboratdir. Kichik maktab yoshidagi davrda o'ziga baho berish istagi bo'lmaydi: Men qanday odamman?. Men qanday foyda keltirishim mumkin?. Mening qanday yaxshi va yomon tomonlarim bor? degan savol tug'ilmaydi. O'smirda bo'lsa, o'z-o'ziga nisbatan, o'zining ichki hayotiga, o'z shaxsining sifatlariga qi-ziqish yuzaga keladi. O'zini boshqa kishilar bilan taqqoslash, o'ziga baho berish ehtiyoji paydo bo'ladi. O'smir o'ziga nazar solib qaray boshlaydi, o'zi uchun qandaydir tarzda o'zining « men» ini ochadi (kashf etadi), o'z shaxsining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishga intiladi.

O'zini anglashning dastlabki tarkib topishi va bundan keyingi taraqqiyoti o'smirning butun psixik hayotiga o'qish faoliyatining xarakteriga, tevarak atrofga bo'lgan munosabatlarining tarkib topishiga, uning boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlariga tasir qilib, chuqur iz qoldiradi. O'zini anglashning voqelikdan uzilib, o'z ichki kechinmalari olamiga ketib qolish deb tushunish to'g'ri kelmaydi. O'zini anglash o'z-o'zini bilishga, befoyda va cheksiz ravishda o'z-o'zini analiz qilishga qaratilgan o'ziga xos intilishning namoyon bo'lishi deb tushunib bo'lmaydi. O'zini anglash ehtiyoji hayot ehtiyojlaridan va amaliy faoliyatlardan kelib chiqadi. O'zini anglash ehtiyoji kattalarning, jamoaning o'sib borayotgan ehtiyojlari bilan belgilanadi.

O'smirlarda o'zini anglashning rivojlanishi ularning o'z xatti-harakatlarini anglashdan boshlanadi (oldin ayrim qiliqlarini, undan so'ng barcha xatti-harakatlarini butunligicha anglashlaridan boshlanadi), undan so'ng o'zlarining sifatlarini, xarakterlarini va o'z qobiliyatlarini anglashdan boshlanadi. Dastlabki paytlarda o'smirlarni o'zini anglashi asosida u haqida boshqa odamlarning kattalarning (o'qituvchilar, ota-onalarning), jamoaning va o'rtoqlarining mulohazalari yotadi. Kichik yoshdagi o'smir o'ziga go'yo atrofdagi odamlarning ko'zi bilan qaraydi. Yosh ulg'ayishi bilan o'z shaxsini mustaqil tahlil qilish va baholash holatlari boshlanadi. O'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, o'smir shaxsining hamma sifatlarini ham bir vaqtini o'zida anglay boshlamaydi. Dastavval ta'lim faoliyatini bajarish bilan bog'lik bo'lgan sifatlar (mehnatsevarlik matonat, diqqatlilik, tirishqoqlik.) anglana boshlanadi. Undan so'ng boshqa kishilarga bo'lgan munosabatlarni ifoda-lovchi sifatlar (o'rtoqlik hissi, mehribonlik, vazminlik, qaysarlik xissi) anglanadi. Undan ham keyin o'z-o'ziga nisbatan bo'lgan munosabatlarni ifodalovchi sifatlar (kamtarlik, takabburlik) anglanadi. Nihoyat shaxsning ko'p tomonlama munosabatlarini ifodalovchi murakkab sifatlar, burch hissi, qadr-qimmat va vijdon xissi, maqsadga intilish xissi anglanadi. O'smirlarda o'zini anglashning muhim xususiyatlaridan biri o'zini bilishga bo'lgan ehtiyoj bilan shaxsning namoyon bo'lishini yetarli darajada to'g'ri tahlil qila olmasligi, o'zi xaqida yetarli darajada bilimlarga ega emasligi o'rtasidagi qarama-qarshilikdir. Mana shu asosda ba'zan o'smirdagi tirishqoqlik darajasi bilan uning jamoadagi xaqiqiy mavqei o'rtasida, uning o'z-o'ziga nisbatan, o'z shaxsining sifatlariga nisbatan bo'lgan munosabati bilan unga hamda uning shaxsining sifatlariga nisbatan kattalarning va tengdoshlarining munosabatlari o'rtasida ixtilof yuzaga keladi. A.G Kovolev adolatli ravishda ta'kidlaydiki, o'smirlarda 2ta bir-biriga qarama-qarshi ammo har ikkisi ham ayni bir vaqtda salbiy bo'lgan kechinmalarni, ya'ni boshqalardan ustunlik va boshqalardan kamlik hissini tug'dirmaslik uchun o'smir shaxsiga to'g'ri baho berish muhimdir. O'smirlarda o'zini anglashni rivojlanishinig yangi bosqichi o'ziga bir na'munani, o'ziga xos axloqiy etalonni ajratish bilan bog'liqdir. O'smir o'ziga na'muna

bo'lgan etalon bilan o'zini solishtirib, o'z xatti-harakatlariga baho beradi. Mana shunday namuna bo'ladigan etalonlar o'smirning xatti-harakatlarini yo'lga sola boshlaydi. O'smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim hisoblangan yangi xislatlarni tarkib topishi unda o'ziga xos kattalik xissining yuzaga kelishidir. O'smir bu hissiyotni o'z-o'ziga katta yoshli odam sifatida bo'lgan shaxsiy munosabatlarni kattalar jamoasida ular hayotining to'laqonli va to'la xuquqli a'zosi sifatida yashashga tayyor ekanligini sub'ektiv tarzda ichidan kechiradi. Kattalik xissi o'smirlarda mustaqillikka va ma'lum darajada erkinlikka intilishni yuzaga keltiradi. Mana shuning natijasida ular kattalarning baholariga g'ayri tabiiy holda javob beradilar va kattalarning ularning qadr-qimmatlarini kamsitishlariga, ularning erkinliklarini inkor qilishlariga, ularning xuquqlariga yetarli baho bermasliklariga juda o'tkir reaksiya bilan javob beradilar.

Xuddi shu davrda o'smir shaxsining shakillanishida turli xil qiziqishlar yuzaga keladi. Bu qiziqishlar psixologiyaning alohida kategoriyasini tashkil etib, u bir tomondan mayl, boshqa tomondan ishtiyoq va havasni o'rtasida joylashadi.

O'smirlik davrida irodani rivojlantirish hamda tarbiyalash masalalari hozirgi davrning eng dolzarb muammosiga aylangan. Zero, kundan kunga oila, maktab, jamiyatning o'sib kelayotgan yosh avlodga nisbatan axloqiy-ma'naviy, siyosiy-ijtimoiy talablari ortib bormoqda.

Kelajak avlodga ta'sir qilayotgan va uning kechinmalarini o'zgartiradigan ichki va tashqi omillarni ko'z oldimizga keltirish juda qiyin. Har qanday bola ham o'z fikrlari, his-tuyg'ulari hamda xatti-harakatlarini boshqara olmaydi.

O'smirlik davrini o'rganuvchi ko'pchilik olimlar asosiy e'tiborni agressiya, emotsional qo'zg'alish, jahl chiqqan holatlarda o'smir shaxsida iroda, o'z-o'ziga munosabatlar qay darajada namoyon bo'lishini o'rganishga qaratadilar. Chunki, bu yoshda ularda hayot tajribalari yetarli bo'lmaydi, lekin ular boshqalar tomonidan tan olinishga va mustaqil bo'lishga intiladilar.

A.TS. Punining fikricha, "... har bir insonning o'z-o'ziga munosabatlari yaxlit tizim sifatida namoyon bo'ladi, lekin turli shaxslarda, hatto, bir shaxsning boshqa xil faoliyat bilan shug'ullanishi natijasida ham o'z-o'ziga

munosabatlarning tuzilishi o'zgaradi. SHuning uchun o'z-o'ziga munosabatlar o'zaro bog'lana oladigan, ta'sirlanadigan, harakatlantiruvchi, dinamik tizim sifatida ifodalanadi" [100, B.93].

O'z-o'ziga munosabatlar – bu qiyinchiliklarni yengishda shakllanadigan xarakter bilan bog'liq aniq vaziyatlarda namoyon bo'luvchi va shaxs xususiyatlariga aylangan irodaviy boshqaruvning o'ziga xos jihatidir [81].

Maqsad – o'z-o'ziga munosabatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni hamda o'zini o'zi nazorat qilish komponentlari qaysi o'z-o'ziga munosabatlari bilan bog'liqligini tekshirish.

Vazifalar:

1. O'smirlik davrida o'z-o'ziga munosabatlarning shakllanganlik darajasini aniqlash.
2. O'smirlik davrida o'z-o'ziga munosabatlar o'rtasidagi aloqadorlikni tahlil qilish.
3. O'smirlik davrida o'zini o'zi nazorat qilish va o'z-o'ziga munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni asoslash.

Dastlab tadqiqot o'z-o'ziga munosabatlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlashga qaratilib, mazkur jabha bo'yicha olingan natijalar quyidagi jadval va diagrammalarda aks ettirildi.

2.3-jadval

O'zini o'zi nazorat qilish turlari bilan o'z-o'ziga munosabatlar o'rtasidagi aloqadorlik

O'zini o'zi nazorat qilish turlari	SHaxsning o'z-o'ziga munosabatlari		
	O'z-o'ziga baho berish	Intilishlar darajasi	Xavotirlilik

ijtimoiy-lashuv jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish	0,77**	0,12	0,47**
emotsional holatlarda o'zini o'zi nazorat qilish	0,22	0,14	0,38*
faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish	0,48**	0,66 **	0,61**

** $r \leq 0,01$ * $r \leq 0,05$

2.3-rasm. O'z-o'ziga munosabatlar va o'zini o'zi nazorat qilish komponentlari o'zaro aloqasining xususiyatlari

Tadqiqot natijalaridan ma'lumki, o'smir shaxsida emotsional holatlarda o'zini o'zi nazorat qilishning xavotirlanish holatlari bilan aloqadorligi ($r=0,28$; $r \leq 0,05$) ahamiyatli darajani tashkil qiladi. Natijalarga ko'ra, o'smir shaxsida xavotirlanishning kuchliligi emotsional jarayonlarni nazorat qilishning kuchli bo'lishi bilan taqozolanadi. SHuningdek, o'smirlik davrida tajovuzkor xatti-harakatlar hamda boshqa salbiy emotsional jarayonlarning ortishini nazarda tutadigan bo'lsak, emotsional holatlarda o'zini o'zi nazorat qilish zaruratining kuchayishi tabiiy hodisa ekanini tushunamiz. SHuni ta'kidlash kerakki, o'smir o'zida qanchalik xavotirlanishni his qilsa, o'zini o'zi nazorat qilishga nisbatan harakat shunchalik yaqqol namoyon bo'ladi.

Xavotirlanish – bu odamning doimo o'zini tashvishli his etishi, turli vaziyatlarni xatarli holat sifatida idrok etishga moyilligidir. Xavotirlanishning boshdan kechirilishi ham individual xususiyat bo'lib, bunday his noaniq biror xavf oldidan paydo bo'ladi. Xavotirlanish ro'y berishi mumkin bo'lgan yoki ehtimol tutilgan noxushliklar, odat va vaziyatdagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. U tashvishli harakatlarda, holatning keskinligida va hokazolarda namoyon bo'ladi. Xavotirlanishning yuqori darajada bo'lishi, odatda, faoliyatning samaradorligini pasaytiradi, shaxsning har xil ziddiyatli xulq-atvori bilan birga kechadi. Odatda

xavotirlanishning shaxs xususiyati sifatidagi va vaziyat bilan bog'liq ikki turi farqlanadi. SHaxs xususiyati sifatidagi xavotirlanish asab tizimining xususiyatlari va uzoq davom etadigan noxush muloqot bilan belgilanadi. Vaziyat bilan bog'liq xavotirlanish yoki reaktiv xavotirlanishlar aniq vaziyat bilan bog'liq bo'lgan va undan tashqarida namoyon bo'lmaydigan tashvishli holatdir.

O'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smirlik davrida faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish va reaktivlik o'rtasida aloqadorlik ko'zga tashlanmaydi ($r=0,11$). Chunki faoliyat o'z mohiyat mazmuni bilan boshqa jarayonlarga nisbatan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lganligi sababli har doim ham emotsionallikka ega emasdir. SHuni ta'kidlash kerakki, o'smirlarning o'quv, mehnat faoliyatlari ma'lum ma'noda ularning kayfiyatlariga ta'sir ko'rsatadi, atrofdagilarning qo'llab-quvvatlashlari, rag'batlantirishlari bilan bog'liq bo'ladi. Lekin natijalar buning teskarisini namoyon qilmoqda. Demak, faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish reaktivlik bilan aloqadorlikka ega emas.

O'smir biror bir faoliyatga kirishishi, uni bajarishga nisbatan xavotirlanishning kuchli bo'lishi faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishning kuchayishiga olib keladi. SHu bilan birga, faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilish o'smir shaxsiga, topshiriqni bajarishga nisbatan qo'yilgan talab va ustanovka ko'rsatmalariga ham bog'liq bo'lishi mumkin. SHuningdek, bu jarayon mazmuni o'smir shaxsining ichki xususiyatlari, bilim darajasi, fikrlash doirasi bilan ham tavsiflanishi mumkin. Chunki bu davrda ta'lim va muloqot yetakchi faoliyat sifatida e'tirof etiladi. SHu bois, ularning asosiy faoliyatlari o'quv topshiriqlarini bajarishga qaratilgan bo'lib, ularda bilim darajasining yetarli emasligi, o'quv topshiriqlarining murakkabligi va yechimini topishda qiynalishlari ularda xavotirlanishni yuzaga keltiradi, bu esa faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishning kuchayishiga olib keladi. O'z navbatida, faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishning xavotirlanish holati bilan aloqasi yuqori darajada ($r=0,45$; $r \leq 0,01$) ekanini qayd qilish mumkin.

Faoliyat jarayonining murakkabligi shunisi bilan tavsiflanadiki, o'smir har bir bajarayotgan xatti-harakatiga nisbatan javobgarlik, mas'uliyat bilan

yondashishi, o'z manfaatini emas, balki jamoa manfaatlarini hisobga olishi talab qilinadi. Bu jihatdan qaraganda faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishning temperament xususiyatlaridan rigidlik bilan aloqasi ahamiyatli daraja ($r=0,21$; $r\leq 0,05$) ni tashkil qiladi. Chunki o'smir ta'lim va mehnat jarayonida bajarayotgan ishlari, erishayotgan yutuqlariga qarab, uning shaxsiga nisbatan baho beramiz. Shu bois, mazkur jihatlar o'rtasidagi bog'liqlik ahamiyatli bo'lib, ular bir-birini taqozo qiladi.

Shu o'rinda o'smirlik davrida mehnat yetakchi faoliyat ekanligini nazarda tutadigan bo'lsak, uning bir qator xususiyatlari yuzaga keladi. Xususan, o'smirlar mehnat faoliyati bilan zo'r ishtiyoq, katta kuch ishlatib shug'ullanadilar. Birinchidan, bunda o'smirlarning faollik singari yosh xususiyati yaqqol ifodalanadi. Ikkinchidan, jiddiy mehnatda ular o'zlarida tarkib topadigan kattalikni his etish tuyg'usini ruyobga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bunday imkoniyatni esa o'smirlar juda qadrlaydilar. Uchinchidan, mehnat odatda jamoa ichida qilinadi, o'smir uchun esa jamoadagi turmush va faoliyatning ahamiyati nihoyatda kattadir. SHunday qilib, o'smirlarning mehnat faoliyati ularning yosh xususiyatlari va ehtiyojlariga to'la javob beradigan faoliyatdir. SHu bilan birga o'smirlarda uchrab turadigan yalqovlik, mehnatdan bo'yin tovlash, o'z mehnat majburiyatlarini nazarga ilmaslik, mehnat topshiriqlariga beparvolik bilan qarash hollari faqat noto'g'ri tarbiyaning samarasidir.

Tajriba natijalariga ko'ra, o'smir shaxsida ijtimoiylashuv jarayonidagi o'zini o'zi nazorat qilish reaktivlik bilan o'zaro aloqadorlikdadir ($r=0,25$; $r\leq 0,05$). Mazkur aloqadorlikdan shuni ta'kidlash mumkinki, o'smir ijtimoiy hayotga, insonlar jamoasiga kirishar ekan, bu jarayonda yuzaga keladigan turli xil qiyinchilik va to'siqlarni yengib o'tishda o'ziga xos emotsional reaksiyalarni namoyon qiladi. O'smir tomonidan tashqi omillarga ko'rsatilayotgan ta'sirlar ayrim o'rinlarda samarali bo'lishi, ayrim jarayonlarda salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. SHuning uchun ham jamiyat manfaatlariga mos ravishda odimlash uchun o'zini o'zi nazorat qilishga kuchli darajada ehtiyoj talab qilinadi.

Bunda, ayniqsa, o'smirlardagi emotsional holatlarni nazorat qilishni nazarda tutish muhim ahamiyat kasb etadi.

Emotsional holatlarda o'zini o'zi nazorat qilishni namoyon bo'lishini o'rganish metodikasi

1. Men jamoat transportida o'zimdan kattalarga va bolaliklarga joy beraman?

A) har qanday holatda (2)

B) ba'zida (1)

V) qachonki bunga majburlashsa (0)

2. Men o'zimda namoyon bo'ladigan hissiyotlarimni boshqara olaman?

A) har doim (2)

B) ba'zida (1)

V) kamdan –kam (0)

3. Agar menga berilgan topshiriqda nimadir men uchun tushunarsiz bo'lsa men:

A) topshiriqni bajarishdan oldin barcha vazifalarni aniqlab olaman (2)

B) ba'zida shunday yo'l tutaman (1)

V) shuni bajarish jarayonida barcha noaniqlilarni yechib boraman (0)

4. Men ish jarayonida o'z harakatlarimni kuzatib boraman

A) har doim (2)

B) u yoki bu vaziyatlarda (1)

V) kamdan-kam (0)

5. Bir argumentni natijasini chiqarishdan oldin men bir oz kutishni taklif qilaman, qachonki men bunga haq ekanligimni bilgunimcha:

A) har doim (2)

B) odatda (1)

V) qachonki maqsadga muvofiq bo'lsa (0)

6. Men hisoblaymanki, har qanday jiddiy vaziyat alohida kiyinish uslubini talab qiladi?

A) qo'shilaman (2)

B) qisman (1)

V) qo'shilmayman (0)

7. Odatda men o'z fikrlarimni kattalardan keyin va vaziyatga qarab bildiraman

A) ha (2)

B) har doim ham emas (1)

V) yo'q (0)

9. Menga vijdoniylik bilan yondashadigan aniq bilim va malakani talab qiluvchi ishlar yoqadi?

A)ha (2)

B) ba'zida (1)

V) yo'q (0)

10. Agar men "qizarsam" men har doim sezamanki bu:

A) ha (2)

B) ba'zida (1)

V) yo'q (0)

11. Ish jarayonida men o'zimni qanchalik to'g'ri bajarayotganimni nazorat qilishga harakat qilaman?

A)har doim (2)

B) u yoki bu vaziyatlarda (1)

V) qachonki xatolikka yo'l qo'ygan bo'lsam (0)

12. Agar menda o'qigan matn bo'yicha to'g'ri tushuncha hosil qildimi degan ikkilanish fikri tug'ilsa unda men:

A) matnni tushunmagan joyini yana bir bor o'qib chiqaman (2)

B) ba'zida shunday yo'l tutaman (1)

V) bunga e'tiborimni qaratmayman, ishning keyingi bosqichiga o'tib ketaman (0)

13. Ishimni tugatgandan so'ng ish joyimni tartibga solaman ertangi kungi ish uchun tayyorlayman:

A) odatda (2)

B) ba'zida (1)

V) kamdan-kam (0)

14. Men o'zimga yarasha talabchan insonman har doim hamma ishlar to'g'ri va o'z vaqtida bajarishga to'g'ri harakat qilaman

A) ha (2)

B) o'rtacha (1)

V) yo'q (0)

15. O'z qilmishlarim ustida men hamisha jamoat qoidasiga rioya qilgan holda o'zimni bosib turishga harakat qilaman

A) ha (2)

B) uncha ishonmayman (1)

V) yo'q (0)

16. Men o'zimga yoqmagan insonlar bilan qo'pol muomala qilmayman

A) to'g'ri (2)

B) har doim ham emas (1)

V) noto'g'ri (0)

17. Agar men matnni o'qish jarayonida qandaydir noaniqliklarga duch kelsam unda men:

A) ularga e'tibor bermayman o'qishni davom ettiraman (0)

B) ba'zida shunday yo'l tutaman (1)

V) ularni aniqlashga harakat qilaman (2)

18. Odatda men tez-tez insonlarga jahl qilib turaman

A) ha (0)

B) ba'zida (1)

V) yo'q (2)

19. Jamoat joylarida odatda men baland gapirmaslikka harakat qilaman

A) har doim rioya qilishga intilaman (2)

B) ba'zida rioya qilaman (1)

V) kamdan-kam rioya qilaman (0)

20. Bajarilgan ishda xatoliklarni to'g'rilash kerak:

A) faqat kimdir bunga e'tibor bergan vaziyatlarda (2)

B) o'rtacha holatlarda (1)

V) kimdir kelib aytguncha kutib turolmayman (1)

21. Qachonki biron bir narsa ustida xavotirlansam o'z xatti-harakatlarimni nazorat qilolmayman

A) odatda har doim (0)

B) ba'zida (1)

V) kamdan-kam (2)

22. Qachonki men o'z faoliyatimni rivojlantirsam shu ishni bajarish uchun qancha vaqt ketishini ko'rib chiqaman

A) har doim (2)

B) ba'zida (1)

V) kamdan –kam (0)

23. Topshiriqni bajarishda men shunda qoniqamanki qachonki barcha elementar holatlarga e'tibor qaratilgan bo'lsa

A) to'g'ri (2)

B) uncha ishonmayman (1)

V) noto'g'ri (0)

24. Auditoriyaga so'zga chiqishdan oldin men o'z ovoz tonimni to'g'rilashga harakat qilaman

A) har doim (2)

B) ba'zida (1)

V) kamdan-kam (0)

25. Barcha narsalar joy-joyida turganligiga ishonch hosil qilmaguncha ishga kirishmayman

A) odatda (2)

B) uncha qo'shilmayman (1)

V) kamdan-kam (1)

26. Uydan chiqib ketishdan oldin men gaz, svet, dazmol, suvni o'chirishni esdan chiqarib qo'yaman

- A) qo'shilaman (0)
- B) uncha qo'shilmayman (1)
- V) qo'shilmayman (2)

27. Muloqot jarayonida men:

- A) o'z hissiyotlarimni erkin bayon eta olaman (0)
- B) o'rtacha holatda (1)
- V) o'z hissiyotlarimni namoyon qilmayman (2)

28. Agar men jamoat joyda qandaydir qo'pol harakatga yo'l qo'ysam tezda unutib yuboraman

- A) ha (0)
- B) o'rtacha (1)
- B) yo'q (2)

29. Ba'zida menga mening ovozimda va xatti-harakatlarimda ortiqcha hayajonlanishimni aytishadi

- A) ha (0)
- B) uncha ishonmayman (1)
- V) yo'q (2)

30. Men o'z xonamda qat'iy tartibda ushlayman barcha narsalar har doim o'z joy-joyida turadi.

- A) ha (2)
- B) o'rtacha holarda (1)
- V) yo'q (0)

31. Men tartibli insonman va odatda hech qaerga kechga qolmayman

- A) to'g'ri (2)
- B) har doim ham emas (1)
- V) noto'g'ri (0)

32. Ba'zi vaziyatlarda noo'rin gapirib qo'yaman keyinchalik esa afsuslanaman

- A) to'g'ri (2)
- B) uncha ishonmayman (1)
- V) noto'g'ri (0)

33. Menga aytishadiki, qachonki men biron-bir narsani gapirsam men vaziyatdan chiqib ketaolmaydigan holatga tushib qolaman

A) to'g'ri (0)

B) qisman (1)

V) noto'g'ri (2)

34. Men shunday berilib ovqatlanamanki, hatto ba'zida ovqatlanish madaniyatiga rioya qilmayman ba'zi insonlarga o'xshab

A) to'g'ri (0)

B) uncha ishonmayman (1)

V) noto'g'ri (2)

35. Qachonki men xafa bo'lsam, o'z hissiyotlarimni yashirin holda nazorat qilaman

A) to'g'ri (2)

B) o'rtacha hollarda (1)

V) noto'g'ri (0)

36. Muloqot jarayonida men hohlaymanki:

A) kallamga kelgan barcha fikrlarimni aytish (2)

B) o'rtacha hollarda (1)

V) avval o'z fikrlarimni tahlil qilib olish kerak (0)

Natijalar tahlili 1.Emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilish 1, 3, 10, 18, 21, 24, 27, 29, 32, 33, 35.

2.Faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish 4, 5, 9, 11, 12, 13, 14, 17, 20, 22, 23, 25. Bu savollardan 4, 12, 25 ayni hollarda yuzaga keluvchi vaziyatlarda o'z-o'zini nazoratiga yo'naltirilgan. 5, 11, 23-savollar esa asosan ish jarayonidagi o'z-o'zini nazorat qilish faoliyatiga qaratilgan.

3.Ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish 2, 6, 7, 8, 15, 16, 19, 26, 28, 30, 31, 34, 36.

Maskur metodika Bulokboshi tumani 3- maktab 7- sinf ukuvchisi

Karimov Abbas va Bulokboshi tumani 5- maktab 7- sinf ukuvchisi
Salimova Oygulda o'tkazildi

Sinaluvchi –Karimov A yoshi 13 jinsi erkak

Natijalar taxlili quyidagicha **1.**Emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilish 1, 3 10,18, 24, , 29, , 33, 35.

2.Faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish 4, 9, 11, 13, 17, 22, 23, 25. Bu savollardan 25 ayni hollarda yuzaga keluvchi vaziyatlarda o'z-o'zini nazoratiga yo'naltirilgan

3.Ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish 2, 6, 8, 15, 16, 19, 28, 31, 36.

Xulosa

Karimov Abbas Emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qila oladi .Xar kanday faoliyatda ish o'z-o'zini boshkara oladi bunday xollarda yuzaga vaziyatlarda o'z-o'zini nazoratida ushlay oladi. .Ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish xolati urtacha

Sinaluvchi Salimova Oygul 13 yosh

Natijalar tahlili **1.**Emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qilish 1, 3, 10, 21,27, 29, 32, 33, 35.

2.Faoliyatda o'z-o'zini nazorat qilish 4, 5, 11, 12, 13, 17, 23, 25.

3.Ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish 2, 6, 7, 8, 19, 26, 28, 30, 31, 34,

Xulosa

Salimova Oygul emotsional holatlarda o'z-o'zini nazorat qila oladi .Xar kanday faoliyatda o'z-o'zini boshkara oladi. Nokulay vaziyatlarda o'z-o'zini nazoratida ushlay olishi kiyin. .Ijtimoiylashuvda o'z-o'zini nazorat qilish xolati urtacha

XULOSA

Qobiliyatlar taraqqiyotining yuksak bosqichiga iste'dod deb ataladi. Iste'dod deb odamga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli mustaqil va original tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Iste'dod mahoratning dastlabki sharti bo'lib, lekin mahoratning uzidan ancha uzoqdir. Mohir usta bo'lmoq uchun juda ko'p ishlash kerak. Iste'dod mehnatdan ozod qilmaydi, balki katta, ijodiy va zur mehnatni taqozo qiladi. Iste'dodli kishilar shubhasiz mehnat orqali olamga mashhur bo'lgan mahorat darajasiga erishganlar. haqiqiy mahorat inson iste'dodining faoliyatida namayon bo'lishidir.

Qobiliyatlar murakkab strukturaga ega bo'lgan psixik sifatlar yig'indisidan iboratdir. Qobiliyat sifatida namayon bo'ladigan psixik sifatlar yig'indisining strukturasi oqibat natijasida konkret faoliyat talabi bilan belgilanadi va har xil turdagi faoliyatlar uchun turlicha bo'ladi.

Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi pedagogik mahoratga erishish uchun o'qituvchida quyidagi qobiliyat turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalab yetishtirilmog'i lozim. Bilish qobiliyati, kuzatuvchanlik qobiliyati, nutq qobiliyati, tashkilotchilik qobiliyati, obru orttira olish qobiliyati, to'g'ri muomala qilish qobiliyati, kelajakni ko'ra bilish qobiliyati, diqqatni taqsimlay olish qobiliyati. Bu pedagogik qobiliyatlar shaxsning aqliy tomonini ham, emotsional - irodaviy tomonini ham xarakterlab beradi.

O'qituvchi zarur hollarda o'quv materialini o'zgartira olishi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkaza olishi darkor.

O'quvchilar ruhiyatini hisobga olib borish bu qobiliyatlarga asos qilib olinadi. Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning bilim va kamolot darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Kupchilik o'qituvchilarga, ayniqsa tajribasi katta o'qituvchilarga, o'quv materiali oddiy tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyulmaydi.

Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsaning o'quvchilarga tushunarsiz va mavhum bir narsa bo'lishi mumkin ekanligiga asoslanib ish tutadi. Shuning uchun u bayon etishni xarakter va shaklini alohida o'ylab chiqadi hamda rejalashtiradi.

Qobiliyatli o'qituvchi materialni bayon etish jarayonida turli o'quvchilarning tushuntirilayotgan materialni qanday o'zlashtirayotganlarini qator belgilar asosida to'g'ri aniqlab oladi va zarurat tug'ilgan hollarda bayon qilish usulini o'zgartiradi. Shuningdek qobiliyatli o'qituvchi o'quvchilarning saboqni o'zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o'tishlari bo'shashish, lanjlik, loqaydliklariga barham berish uchun minimal darajada vaqt ajratish zaruratini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelmagunga qadar ish boshlamaydi. Masalan, darsning haddan tashqari zo'riqish bilan va kuchli boshlanishi o'quvchilarda muhofaza qiluvchi tormozlanish deb atalmish holatiga sabab bo'ladi, miya faoliyati tormozlanadi va o'qituvchining so'zlari yetarli darajada idrok qilinmaydi.

Fikrlar ifodasi o'quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo'ladi. O'qituvchining bayoni o'quvchilar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga savollar qo'yib ularni asta - sekin to'g'ri javob berishga olib boradi, o'quvchining diqqatini ishga soluvchi hamda fikrini faollashtiruvchi so'z va iboralar qo'llaniladi. O'qituvchi uzundan uzoq jumlar, murakkab so'z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralarni qo'llashdan qochadi. O'rinli yumor, hazil, yengilgina istehzo nutqni jonlantirib yuboradi, uni o'quvchilar yaxshi qabul qiladilar.

O'qituvchining nutqi aniq, jonli obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his - hayajonli bo'lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho'ziq zeriktiradigan nutq o'quvchilarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qo'yadi. Ayrimlar tez, ayrimlar sekin gapirishga moyil bo'ladilar. O'quvchilarning o'zlashtirishlari uchun o'rtacha, jonli nutq yaxshi natija beradi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish nazarda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda vaqtni o'ziga xos his

etish vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi.

Dars davomida kutilmaganda ortiqcha vaqt sarflash hollari uchray turadi. Ammo tajribali o'qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o'zgartira oladi. O'quvchilar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini hurmat qiladilar.

Diqqat ayni bir vaqtda faoliyatning bir qancha turlari o'rtasida taqsimlanish qobiliyati o'qituvchining ishi uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyat tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmunini va formasini o'z fikri yoki o'quvchi fikrini diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni o'z diqqat e'tiborida tutadi, toliqish, e'tiborsizlik tushkunlik alomatlarini hushyorlik bilan kuzatib boradi, barcha intizom buzish hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat shaxsiy hatti harakatlarini kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha materialni bayon qilishga berilib ketib o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi.

O'qituvchi yuqoridagi qobiliyatlardan tashqari sabr - toqatli, irodali bo'lishi va ibrat - namuna bo'la olish qobiliyatiga ega bulishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarni o'zining shaxsiy namunasi, o'z shaxsiy xulq atvori va butun shaxsi bilan ham tarbiyalaydi. Bolalar uchun o'qituvchining har bir hatti harakati namunadir. Bu holat o'qituvchidan bolalarga nisbatan juda ziyrak munosabatda bo'lishni talab etadi. Shuning uchun o'qituvchi o'zi o'qitadigan fanni mukammal bilish bilan birga yuksak axloqiy, ma'naviy pok, irodali, nazokatli, sabr toqatli, qat'iyatli, mehnatsevar, kamtar bo'lishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI

1. O`zbekiston Respublikasining «Ta'lim to`g`risida» gi Qonuni. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., «Sharq», 1997 yil.
3. 1-Prezidentimiz Karimov I.A. «O`zbekiston XXI asrga intilmoqda» T., «O`zbekiston» 1999 yil.
4. 1-Prezidentimiz Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma'naviyat”, 2008. -176 b.
5. 1-Prezidentimiz Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: O`zbekiston, 2011. – 440 b.
6. 1-Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti” mavzusidagi Halqaro konferentsiyada so`zlagan nutqidan. – Toshkent, 2012 yil, 17 fevral.
7. Azizxo`jaeva N.N. O`qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000. – 52 b.
8. Goziev Yo.Yo. «Umumiy psixologiya» I-II tom.Toshkent-2002y.
9. Ishmuhamedov.R. Pedagogik mahoratni shakllantirishning mazmuni va yo`llari. «Xalq ta'limi» jurnali. 1998 y. 1-son. 50-52 betlar.
10. Kurbonov Sh.M. Ilmiy ijod metodologiyasi. Samarqand, 2005. 56 b.
11. Mahmudov M. O`quv materialini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil, 3-son, 3-11 betlar.
12. Mahmudov M. Ta'lim natijasini loyihalash. G`G` «Pejagogik mahorat», 2003 yil, 1-son, 8-10 betlar.
13. Oliy pedagogik o`quv yurtlarining o`quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etishning ilmiy asoslari. Respublika ilmiy-metodik konferentsiyasining materiallari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2000. 111 b.
14. Rahimov I. Falsafa (qisqacha kospekt). T. 1998 y.


15. Sayidahmedov N. Ta'limda harakatlantiruvchi kuch. «Ma'rifat», 1998 yil, 16 yanvar.
16. Sayidahmedov N.S. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2003.
17. Sayidahmedov N.S. O'qituvchi faoliyatining texnologiyalanuvchanligi. – «Xalq ta'limi» jurnali, 1999. 5-son.
18. Farberman B.L., Musina R.G., Jumaboeva F.A. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. T., 2002 yil.
19. Qurbonov Sh. Kadrlar tayyorlash milliy modeli: ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish. -Ma'rifat, 2001 yil 20 iyun, № 48.
20. Qurbonov Sh., va boshqalar. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi publitsistik mulohazalar). – T.: Sharq, 1998. 144 b.
21. Hasanboyev J., Hasanboyeva O., To'raqulov X.A, Haydarov M.. Pedagogika fanidan izzohli lug'at. T-2008y.
22. E.Z.Usmonova “O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin?” T...2000y.
- 23.E.Z.Usmonova «Psixologicheskie igru i uprajneniya dlya razvitiya poznavatelnoy aktivnosti dashkolnikov i mladshix shkolnikov» T...1997g.
- 24.E.G'oziev “Tafakkur” psixologiya. O'qituvchi. T...1999y.
- 25.E.G'oziev “O'quvchilarni o'quv faoliyatini boshqarish” T...1998y.

Internet manbalari:

www.lib.psichology.ru

<http://www.ziyounet.uz>.

Ilovalar



Илмий тадқиқотчиларнинг фикрича, юксак истеъдод қуйидагича боскичлардан иборат бўлиши мумкин:

А) бундай шахснинг биринчи хусусияти зийраклик, шайлик, жиддий фаолиятни бажаришга тайёр туришликдир.

Б) шахснинг иккинчи хусусияти унинг меҳнатга тайёргарлиги (меҳнатга мойиллиги, меҳнатга интилиши, меҳнатнинг эҳтиёжга айланиши)дир.

В) инсоннинг учинчи хусусияти унда тафаккур хусусиятлари ва фикр юритишнинг тезлиги, ақлнинг тартиблиги, таҳлил ва умумлаштиришнинг юқори имкониятлари, ақлнинг маҳсулдорлиги.